

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

447-guruh bitiruvchisi Sheraliyeva Nozimaxonning

**“OSKAR UAYLDNING “DORIAN GREYNING
PORTRETI” VA OMON MUXTORNING “KO`ZGU
OLDIDAGI ODAM” ASARLARIDA OYNA VA SURAT
MOTIVLARI” mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.d.,prof. A.Qosimov

Reja:

Kirish. Masalaning qo'yilishi va o'rganilishi.....

I Bob. Surat va ko'zgu timsollari genezisi.

1.1. Folklorda ko'zgu timsoli.....

1.2. Badiiy adabiyotda ko'zgu va suratning badiiy-estetik funksiyasi.....

.....

II Bob. Oskar Uayld va Omon Muxtor asarlarida ko'zgu va surat ramzining badiiy va g'oyaviy ahamiyati.

2.1. Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" romanida portret motivi.....

.....

2.2. Omon Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam" asarida ko'zgu detalining badiiy-estetik funksiyasi.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Kirish.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta.

Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atikorlari – ularni barchasining nomlarini zikr etish, albatta ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi – yetishib chiqqani bilan barchamiz xaqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismat bo'lgan adabiyotning rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lamini jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxonni xalqimizni albatta quvontiradi¹.

Badiiy adabiyotga, badiiy asarlarga qiziqish borgan sari susayib bormoqda. Kitob magazini, kitob do'konlari kundan- kunga yangidan yangi kitoblar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarimiz, kitobxonlarimiz sevib o'qiydigan asarlar ham bor. Bunday asarlar sirasiga biz detal-sarguzasht asarlarni kiritishimiz mumkin. Detal-sarguzasht asarlarning bozori chaqqon, biroq ularning saviyasi, badiiyligi qay darajada ekanligi muhimdir.

¹ Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008 yil, 137-bet.

Mavzuning dolzarbligi. Jahon adabiyoti, rus va bir qator qardosh xalqlar adabiyotida sarguzasht asarlar munosib o'rin olgan. Lekin negadir bizda bu tur nisbatan sust rivojlangan. Keyingi yillargagina kelib bu sohada bir oz jonlanish ro'y berdi.

Sarguzasht va modern asarlarga mensimay qarash, bu boradagi nazariy chalkashliklar ham uning yo'liga to'g'anoq bo'lgan. Yaqin-yaqinlarga qadar sarguzasht, detal jiddiy adabiyotga mansubmi yoki yo'qmi, degan masala ustida bahslar ketar edi, sarguzashtni "shunchaki oldi-qochdi" deb atash kasali hali ham yo'qolgani yo'q, detalni ta'riflashda esa o'ta qo'pol chalkashliklar mavjud². Chunonchi "Adabiyotshunoslik lug'ati" da shunday ta'rif beriladi: "Detal adabiyot – sarguzasht adabiyotning bir tarmog'i, syujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog'liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiy nomi. Detal adabiyot turli janrlarga mansub asarlarni- hikoya, qissa, romanlarni o'z ichiga oladiki, bu uning tematik jihatdan ajratilishini ko'rsatadi. Shu bois ham adabiyotshunoslikka oid ayrim ishlarda, muomala amaliyotida mavzu jihatidan detal adabiyotga yaqin bo'lgan harbiy razvedka, turli mahfiy xizmatlar faoliyati haqidagi, shuningdek, boshqa ko'plab o'tkir syujetli, lekin bevosita jinoyat qidiruv bilan bog'liq bo'lmagan asarlar ham detal adabiyotga mansub sanaladi. Dedektiv adabiyotning klassik namunalari XIX asr Evropa adabiyotida yaratilgan bo'lib, asoschisi sifatida fransuz adibi Edgar Po e'tirof etiladi. Uning "Morg ko'chasidagi qotillik"(1841) nomli asarida ilk bor hayratomuz mantiqiy tahlil qobiliyatiga ega izquvar obrazi yaratilgan bo'lib, asar syujeti to'laligicha jinoyatni ochish bilan bog'liq voqealar silsilasidan iborat. Dedektiv adabiyot taraqqiyotida A. Konan Doyl, G. Chesterton, J.Simenon, A. Kristi, YU. Semenov kabi ijodkorlarning katta xizmatlari bor. Qiziqarli avantyuraga boy syujet, o'qishlilik detal adabiyotning keng ommalashib borishiga asos bo'ldi. XX asrga kelib, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarining kengayishi, kino va televideniyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda detal adabiyotga talab yana kuchaydi. Endi keng omma talabiga mos detal

² Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi. T., Mumtoz so'z. 2008 yil, 104-bet.

adabiyot namunalari – Jeyms Bond tipidagi josuslar, Fantomas tipidagi aqlli jinoyatchilar, mafiya ichida xufiya ish yuritayotgan yoki jinoyat olamiga qarshi yakka kurashayotgan polisiyachiyu maxfiy xizmat xodimlari va shu kabilar haqidagi oldi-qochdilarga to'la asarlar ko'paydi"³.

Ishning maqsadi.

Jahon va o'zbek adabiyotidagi modernizm yo'nalishiga oid bo'lgan asarlardagi ramziy detal masalasini ilmiy manbaalarga tayangan holda tahlil etishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Ishning vazifasi.

- Jahon adabiyotida dedik janri tarixi va bugungi kundagi holati;
- asarlardagi ramziy detal masalasi;
- portret va ko'zgu detalining fuksiyasi;
- obraz tahlilida detalning o'rni;
- Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" romanida portret motivi;
- O'zbek adabiyotida ko'zgu detalining o'rni;
- Siroj muallim obrazining tahlili;
- Dorian Grey va Siroj muallim obrazining qiyosi-tipologik tahlili;
- Lord Genri va Siroj muallim obrazlarining yoritilishida detallar funksiyasini belgilash kabi masalalarning yoritilishi ishning vazifasini tashkil etadi.

Ishning obykti. Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" romani, Omon Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam" asarlari ishimizning asosiy ob'ektini tashkil etadi. Surat va ko'zgu ramzining badiiy-estetik vazifasini

³ Quronov D., Z. Mamajonov, M. SHeralieva. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., akademnashr, 2010 yil, 91-bet.

ochish uchun Mirtemirning “Surat”, Sh.Hamroyevning “Suratdagi ayol”, U.Nazarovning “Oyna” asarlari ham manbaa bo`lib hizmat qildi.

**Ishning o`rganilish darajasi.** Jahon miqyosida davlatlararo integrasiyaga intilishlar kushayib borayotganligi, millatlararo munosabatlarda tinchlik, hamjihatlik, do`stlik, hamkorlik masalalari keng ko`lam kasb etayotganligi madaniy-adabiy aloqalarning ham yangisha shiddat bilan rivojlanishini taqozo qilmoqda. Ijtimoiy – iqtisodiy yuksalish sari o`ziga xos taraqqiyot yo`lidan dadil odimlayotgan, jahon hamjamiyatidagi nufuzi tobora ortib borayotgan, xalqaro aloqalari kengayib, yangi pog`onaga ko`tarilayotgan mustaqil O`zbekistonda ham bunday hamkorlikning yangi ufqlari yuz oshmoqda. Bu hol, o`z navbatida, badiiy tarjima, tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalarining ahamiyatini ham yanada oshirmoqda. Zero, «keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada shuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo`lishushun qulay zamin yaratdi»⁴.

Dunyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy va adabiy hamkorligi muttasil rivojlanayotgan hozirgi davrda turli millatlar so`z san`atining bir-biriga ta`siri, o`zaro aloqalar tadrijida badiiy tarjimashilikning o`rni kabi masalalarni tadqiq etish kata ilmiy ahamiyat kasb etadi. “Boshqa mintaqalar bilan ijtimoiy va madaniy jihatdan aloqa qilmagan holda rivojlangan mamlakatlarni kishilik jamiyati tarixi hali bilmaydi”<sup>5</sup>. Binobarin, O`zbekiston jahonga yuz tutayotgan ekan, adabiy aloqalarimiz va badiiy tarjimashiligimiz tarixini yangisha nuqtai nazardan o`rganish tobora dolzarblik kasb etishi shubhasizdir. Shuning uchun ishning o`rganish jarayonida buyuk adabiyotshunoslar fikri muhim manbaa bo`lib xizmat qiladi. Ozod SHarafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G`ofurov, Dilmurod Quronov, Abdug`ofir Rasulov hamda “Jahon adiblari adabiyoti haqida” kitobi,

⁴ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari. T., O`zbekiston, 1998, 149-bet.

⁵ Jirmunskiy V.M. Sravnitel'noe literaturovedenie. Vostok i Zapad. Izbrannyye trudy. – M., Nauka, 1979. – str.71.

Xusan Ermatovning “Nobel mukofoti sovrindorlari” kitoblarida ma’lumotlar berilgan.

Ishning yangiligi. Adabiyotshunos olimlarimiz fikriga tayangan holda biz mazkur bitiruv-malakaviy ishimizda jahon va o’zbek adabiyotidagi asarlardagi ramziy detal masalasini qiyosiy-tipologik tahlil etdik. Turli tarixiy davrlarda yaratilgan o’zbek adabiyotiga mansub badiiy asarlarda qo’llanilgan ko’zgu va surat ramzlari birinchi marta tarixiy-qiyosiy planda tadqiq etildi. Omon Muxtorning “Ko’zgu oldidagi odam” va Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” romanlarida ko’zgu, surat ramzlari hamda motivlarining ushbu asarlar poetikasida tutgan o’rni, qahramonlar ruhiy-ma’naviy olamini ochib berishdagi ahamiyati batafsil o’rganildi va shu asosida ramzlarning adabiyotdagi roli hususida xulosalar chiqarildi.

Ishning tuzilishi. Ish kirish, xulosa, adabiyotlar ro’yxatidan tashqari, ikki bob, har bitta bob ikkita fasldan iborat. Birinchi **bob “Surat va ko’zgu timsollari genezisi” deb nomlanib, bu bobda** folklorda ko’zgu timsoli, badiiy adabiyotda ko’zgu va suratning badiiy-estetik funksiyasini ilmiy va nazariy jihatdan tahlilga tortdik.

“Oskar Uayld va Omon Muxtor asarlarida ko’zgu va surat ramzining badiiy va g’oyaviy ahamiyati” deb nomlangan ikkinchi bobimiz ham o’z ichiga ikki faslni oladi. Bu bobda asosan Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” romanida portret motivi, Omon Muxtorning “Ko’zgu oldidagi odam” asarida ko’zgu detalining badiiy-estetik funksiyasini tahlil etdik, ramziy detal va ma’naviyat masalalarini yoritdik. Ish nazariy va ilmiy jihatdan xulosalandi. Ishda qirqdan ortiq ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanildi.

Surat va ko`zgu timsollari genezisi.

I.1 Folklorda ko`zgu timsoli

Bilamizki xalq og`zaki ijodiga, badiiy adabiyotga oid asarlarning mazmun- mohiyatini ochib berishda turli ramzlardan foydalaniladi. Ma`lumki, biror-bir hodisa mohiyatini shartli ravishda ifodalovchi narsa va so`zni simvol yoki ramz deb ataymiz.”O`zbek tilining izohli lug`ati”da ramzga: “Biror g`oya, tushuncha, hodisa va shaklni ifodalovchi shartli belgi, ishora”⁶, ”O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”da unga: “Ramz-voqeilikni badiiyy aks ettirishning shartli usuli: badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog`liq bo`ladi va ko`pma`noligi bilan ajralib turadi”<sup>7</sup>, -deb ta`rif beriladi. Rus shoiri Andrey Belyning “Simvolizm – dunyoni anglash sifatida” deb nomlanuvchi kitobida ramzga xos bo`lgan uch turdagi xususiyat haqida so`z boradi: 1) ramzning borliqni aks ettirishi; 2) ramz his-tuyg`ular natijasida o`z ko`rinishini o`zgarishini o`zgartirgan obraz ekanligi; 3) badiiy obraz shakli va mazmunining uzviy bog`liqligi.⁸

Umuman inson madaniyati xususiyatlaridan biri hisoblangan ramziylik qadimgi mifologiya, dinlar, san`atning arxaik shakllari, falsafaning ilk shakllanish davrlariga oiddir. Ramziylikning o`ziga xos ko`rinishlari Qadimgi Misr, Sharq, Antik dunyo va O`rta asrlar madaniyatida yaqqol ko`zga tashlanadi. Bu borada hayvonlar va ranglar ramzi asosiy o`rin tutadi. Bundan tashqari odamlar, uy-

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. М., 1981. 613-бет.

⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. Тошкент, 2004. 247-бет.

⁸ <http://dklad.ru/manika/dklad/view/zip>

ro`zg`or buyumlaridan turli ramziy ma`noni ifodalash uchun foydalanganlar. Bu borada oyna, portret (surat) tasviri haqida alohida to`xtab o`tishga to`g`ri keladi.

Qadimgi Xitoy mifaologiyasida oynaning hamma narsani aks ettirishini hisobga olib ilohning ko`zi deb bilganlar. Hind mifologiyasi qahramoni Brasha oynada o`zini va o`zining qudrati mo`jizalarini ko`rganligi aytiladi. Yapon xalqida ko`zgu sovg`a sifatida taqdim etilmaydi, chunki ko`zguga birinchi bor nikoh tashlagan odamning ruhi unga ko`char va ko`zgu faqat birinchi bor qaragan insonnikigina xisoblanar ekan.⁹

Qadimgi slavyan afsonalarida aytilishicha, tunda ko`zgu bu qorong`ulikka hukmronlik qiluvchi va o`lgan insonlar qalblari sayr qilib yuruvchi narigi dunyo eshigidir. O`zbek xalqlining irimlariga ko`ra ko`zgu ko`rgan narsani ancha vaqtgacha eslab qoladi. Demak ko`zgu inson chexrasini, u qilgan barcha ishlarni yodida saqlaydi va ko`zgu buni sizga qarshi ishlatilishi mumkinligi aytiladi.

Ko`zgu ramzi o`zbek folkloridagi afsona va ertak janrlariga mansub asarlar syujetida ko`p uchraydigan an`anaviy detallardan biri bo`lib, u syujet voqealarini rivojlantiruvchi muhim badiiy unsur sifatida qo`llaniladi. Bilamizki, oyna ramzi asosan qalbgga, ko`ngilga muqoyasa qilinadi. O`zbek xalq ertaklarida oynaning badiiy qurilishidagi poetic vazifalari haqida adabiyotshunos olimi Zebiniso Rasulova quyidagi fikrlarni beradi: “Bu “g`aroyib buyum” ning etak badiiy qurilishidagi poetic vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Axborot berish:

a) qahramon va uning ahvoli to`g`risida xabar berish. Qadimgi odamlarning oyna ruhlari haqidagi tasavvurlariga borib taqalgan bu funksiya “Gullar siri” ertagida bosh qahramonning sehrli oyna orqali o`z yaqinlarining ayanchli ahvolidan xabar topib, ularga yordamga otlanishi motivida o`z ifodasini topadi;

⁹ Н.Тоирова Ойна ва сурат тимсолларининг бадий-эстетик вазифаларига доир И. Ўзбек тили ва адабиёти – Т. 2005-йил.

b) qahramonga uzoqdagi sevgilisi haqida ma'lumot berish. "Malikayi Gulizor" ertagida qahramon sehrli oyna vositasida ikki oylik yo'l uzoqligidagi sevgilisidan bir zumda xabar oladi;

d)qahramonni dunyo voqealaridan ogoh etish.Qahramonni dunyo voqealaridan xabardor etadigan tilsimli oyna ko`pincha "Oynayi jahon" deb ta`riflanadi¹⁰

Jahon xalq ertaklaridan biri bo`lgan "Sohibjamol va Maxluq"<sup>11</sup> ertagida ham ertak qahramoni sehrli oyna orqali o`z yaqinlaridan habar topadi.

2. Qahramonlarning hayoti bilan bog`liq muhim voqealardan xabar berish uni muayyan qiyinchiliklardan ogoh etish, haqiqatni yuzaga chiqishini ta'minlash. "Kenja qiz" ertagida tilsimli oyna qahramonlarning yoshligida boshidan o`tgan qiyinchiliklarni ko`rsatib beradi.

3. Uzoqdagi narsa- buyumlarni yaqinga ko`chirib olib kelib berish. "Sultonxon" ertagida qahramon qo`lidagi oyna yordamida o`z qo`rg`onini boshqa joyga ko`chiradi.

4. Yolg`onchining sirini qosh etish. "Kuno`g`il va Oypari" ertagida tilsim oyna rost gapirganni ko`rsatib , yolg`on gapirganni ko`rsatmaganligi uchun yolg`onchining siri ochilib, u fosh bo`ladi.¹²

Yuqoridagi misralardan ko`rishimiz mumkinki ertaklarda oyna asosan ertak qahramonlarini dunyo voqealaridan xabardor etish, uzoqdagi narsa-buyumni ko`chirib kelish , yolg`onchining sirini fosh etish kabi vazifalarni bajargan.

Jahon xalq ertaklariga nazar tashlasak ko`zgu ko`proq axborot berish vazifasini o`tagan. Misol uchun Hans Kristian Andersenning "Qor qiz"<sup>13</sup> ertagida ham ko`zgu orqali jodugar kampir Qor qiz haqida xabar topadi.

¹⁰ Расулова З. Ўзбек халқ сеҳирли эртакларида "Ғаройиб буюм"лар фил. Ф.н.дисс.ав, Тошкент. 2012. – 1-bob.

¹¹ DawloadIn 122. Weeblyu.com/blog/ sohild

¹² Засулова З. Ўзбек халқ сеҳирли эртакларида Ғаройиб буюмлар. Фил.ф.н.дисс.авт. Т.2012.

Ko`zgu sehrlarlik va jodugarlikda ham muhim o`rin tutadi. Chunki uning ko`p g`ayrioddiy va ajoyib xususiyatlari bor. Ko`zgu chapni o`ng va o`ngni chap holatda ko`rsatadi. Bundan tashqari unga qaragan kishining nafaqat aksi balki ikkinchi “men”i paydo bo`ladi. Ketlin Roulingning “Garri Potter” asarida esa ko`zgu oxirat eshigi sifatida namoyon bo`ladi.<sup>14</sup> Ayniqsa K.Rouling asari syujetida ko`zgu muhim o`rin tutadi. Ko`zgu Garrining eng ardoqli istaklarini ko`rsatadi va u orqali Garri o`lgan ota-onasi bilan muloqotda bo`lishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, folklor namunalarida oyna asosan quyidagi vazifalarni bajargan:

- ✓ ertak qahramonlarini dunyo voqealaridan xabardor etish
- ✓ uzoqdagi narsa-buyumni ko`chirib kelish
- ✓ yolg`onchining sirini fosh etish kabi vazifalarni bajargan.

¹³ www. Ziyonet.uz. X.Андерсен. Қор одам

¹⁴ Н.Тоирова Ойна ва сурат тимсолларининг бадий-эстетик вазифаларига доир И. Ўзбек тили ва адабиёти – Т.2005.

I.2. Badiiy adabiyotda ko`zgu va surat timsollarining badiiy-estetik funksiyasi.

Badiiy asarlarda yoritilayotgan biror bir mavzuni mazmun- mohiyatini ochib berishida turli ramzlardan foydalaniladi. Jumladan o`zbek mumtoz adabiyotida ramziy ma`noga ega voqea-hodisalar, turli ashyolar ko`p bo`lib, ularning ba`zilari biron tushunchani ifodalasa, ayrimlari jumboq, sirli tilsim shaklida namoyon bo`ladi. Badiiy adabiyotda ko`zgu asosan to`g`rilik, adolat, inson qalbi ramzi sifatida olingan. O`zbek mumtoz adabiyoti yetuk namoyondasi bo`lmish Alisher Navoiy asarlarida ham ko`zgu motivlari gavdalanadi. Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr” asarlarida ko`zgu detali ko`zga tashlanadi. Bu asarlarda uchrovchi ko`zgu detali asosan to`g`rilik, adolat, qalb ramzi sifatida gavdalanadi.

“Saddi Iskandariy” asarining **“Xoqonning Iskandar uchun ziyofat asbobin tuzgani va ani Chinga elturga iltimos ko`rguzlani va ul shohona bazmu oyin vaz’i vasfida xomai nodira nigor durfishonliq qilmoq va tuhaf va navodir tazyini ta`rifida tab`I balog`atshior gavharposhlik ko`rguzmak va peshkashlari te`dodida to`quz falak avroqin xomag`a rqaamzad qilmoq va bazmi dilkashlari sharhida sekiz bihisht riyozin aql ko`ziga rad qilmoq”**<sup>15</sup> ya`ni, Xoqonning Iskandar uchun ziyofat tayyorgarligini ko`rgani va ani Chinga kelishga iltimos qilgani va u kelgach shohona bazm tuzib, turli-tuman sovg`a-

¹⁵ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. T., G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991 y. 323-b.

salomlar,nodir tuhfarlar hadya etgani deb nomlangan 52-bobida ko`zgu detali qo`llangan.Bu yerdagi ko`zgu “to`g`rilik”,”adolat”ramzi <sup>16</sup>sifatida tasvirlangan.Bu xususida batafsil to`xtalib o`tadigan bo`lsak, Chin Xoqoni Iskandarga oyna sovg`a qiladi,u oddiy oyna emas,sehrli oyna edi.Bu oynani tilsimli qilib yasagan hakimlar uning ikki betiga ikki xil ko`rsatish qobiliyatini bergan edilar.Oynaning

g`aroyibliigi nimada?degan savol tu`g`iladi.Oynaning g`aroyibliigi shundaki, uning ikkala tomoni ham oy-u quyoshdek yorug`.Birinchi tomoninig sehrli xususuyati shuki,agar shoh oldiga da`vogarlari kelib o`z maqsadini bildirib,oynaga qarasa,ularning haq yoki nohaqligini bir zumda aniqlash mumkin bo`ladi:

KI bir-biriga el da`vo izhor etar

Agar kimsa da`voga inkor etar

Bu da`voda ermas guvoh ehtiyoj

Erur ko`zgu sari nigoh ehtiyoj

Agar so`zi chindur-ko`rinur yuzi

Ko`rinmas yuzi-bo`lsa yolg`on so`zi¹⁷

Demak,qaysiki da`vogari haq bo`lib ko`zguga qarasa,yuzi ko`rinadi,yolg`on so`zlaganning yuzi ko`rinmaydi.Shundan xulosa qilib aytish mumkinki,ushbu o`rindagi ko`zgu insonning aslini ko`rsatuvchi,haqiqatni ochuvchi adolat ramzidir.Oynaning ikkinchi tomoni ham g`aroyib bo`lib,uning g`aroyibliigi shundaki,shoh bazmida me`yorini bilib may ichuvchilar ko`zguga qarasa,ularning yuzi o`z holicha ko`rinadi,me`yoridan ortiq ichib,badmastlikka berilganlarning yuzi esa uzun,qisqa,yapaloq,kichik yoki kata bo`lib ko`rinadi:

¹⁶ T.Xo`jayev.”Saddi Iskandariy”dagi ramzlarning ma`no qirralariga doir.//O`zbek tili va adabiyoti.T,2010,Nº6 62-63-b.

¹⁷ Alisher Navoiy.Saddi Iskandariy.T.,G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1991 y.328-b.

Alarkim, may ichganlar orom ila.

Ko`rinur alarga yuz andom ila.

Birov mayga topib furudastlik,

Ayon qilgudek bo`lsa badmastlik.

Ko`rinur yuzi ko`zgu ichra buzuq,

Uzun, yo`qsa yoypang, kichik yo uluq¹⁸

Demak, ko`zgu orqali inson o`zining asl qiyofasini ko`radi. Xulosa qilib aytish mumkinki, asarda uchrovchi ko`zguning bir tomonida yolg`on so`zlaganning yuzi ko`rinmaydi, ikkinchi tomonida esa yomon xulq egalarining yuzi buzuq ko`rinadi. Shu sababli bu yerda ko`zguni nafaqat to`g`rilik, adolat ramzi sifatida, balki qalb ramzi sifatida ham olishimiz mumkin.

Insonning qalbi qanchalik toza bo`lsa, ko`zguda uning aksi ravshan ko`rinadi. Buni Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi quyidagi misralarda kengroq talqin qilinganligini ko`ramiz:

Ko`zgu ravshanroq nega qilsa zuxir

Zoxir o`lg`an aks onda bequsdir.¹⁹

Yani, ko`zgu qanchalik ravshan bo`lsa, aks ham shunchalik benuqson namoyon bo`ladi.

Bundan ko`rinadiki insonning qalbi qanchalik ravshan bo`lsa, uning ko`zgudagi aksi ham shunchalik nuqsonsiz ko`rinadi.

¹⁸ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. T., G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991 y. 328-329b.

¹⁹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T. 1991. 85-bet.

Adabiyotshunos Nargiza Toirova shu xususida quyidagi fikrlarni berib o'tadi: "Alisher Navoiyning "lison ut-tayr"dagi "Shoh va uning ko'zgusi" hikoyasida majozning ma'nosini quyidagicha izohlaydi:

Qasr – tan, onda ko'ngulni ko'zgu bil

Ko'zguda shoh husnini nazzora qil

Bermayin bu ko'zguga avval jilo,

Aks onda solmag'ay ul podsho.

Sh. Sharipov bu misralarga: **"Qasr – inson gavdasi, ko'zgu undagi ko'ngil, shoh esa xudo obrazidir"**, – deb sharx beradi. Bu yerda tasavvufda keng tarqalgan vahdat ul vujud ta'limoti bo'yicha "xudovand olamni o'z jamoli va kamolini namoyish etish uchun yaratdi. Ya'ni U o'z husnini tomosha qilish uchun o'ziga ko'zgu yaratdikim, bu bizni o'ragan moddiy olamdir. Ammo bu ko'zguning javxari inson qalbidir; ya'ni inson Xudoni ko'ngil yordamida bila oladi. Degan so'fiyona nazariy ta'limot ilgari surilmoqda.²⁰

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytib o'tishimiz mumkinki "Lison ut-tayr" dostonida ko'zgu inson qalbining tasavvufiy ramzidir.

"Sab'ayi sayyor" dostonida ham ko'zgu haqida gap boradi. To'rtinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir Juna haqidagi hikoyatni aytib beradi. Dehlida hukmronlik qiladigan bu shoh adolat, insof timsoli. Xazina, mol-u davlatning hisobi yo'q edi. Bir kuni musofir mehmon unga bir ko'zgu sovg'a qiladi.

Bu ko'zgu qanday sifatga ega?

Tuxfa kelturmish erdi bir ko'zgu

Kim, ani tutsa har kishi o'tru

²⁰ Н.Тоирова Ойна ва сурат тимсолларининг бадий-эстетик вазифаларига доир И. Ўзбек тили ва адабиёти – Т.

Chin desa aksida safo erdi

Desa yolg'on yuzi qaro erdi.²¹

Ko'zguning sehrli xususiyati shu ediki, kim rost gapirsa, oynada aksi aniq-tiniq ko'rinadi. Yolg'onchining yuzi esa, qora bo'lib aks etadi. Bu yerda ham ko'zgu rostlik, to'g'rilik ramzi sifatida ifodalanadi. Batafsil yoritadigan bo'lsak, shoh Juna mehmondan dunyoda mendek sahiyni ko'rganmisan degan savoliga, yolg'on javob beradi va shunga uni oynaga qaratishadi, yuzi qora ko'rinadi. So'zi yolg'onligi fosh bo'ladi. Savolga rost javob berganidan so'ng oynaga qarasa yuzi oq-asl holicha ko'rinadi:

Dedi: "Yer yo'qki, men yugurmaymen

Rov sendek jahonda ko'rmaymen."

Dedi: "Chindur bu?" – Dedi: "Chindur bu?".

Shah dedi: "Olig'a tuting ko'zgu!"

Chunki nazzora qildi ko'zgu aro

Aksi ko'zg aro ko'rundi qaro...

Bu qaro boisi chu yolg'indir

Chin degilkim iloji osondur".

Dedi: "Ko'rdim", – Dediki: "Ko'zguga boq!"

Boqdi ko'zguga, bore di yuzi oq.

Demak , mumtoz adabiyotda ko'zgu to'g'rilik , adolat o'rnatuvchi vosita,insonning botiniy olamini aks ettiruvchi, inson qalbining tassavufiy ramzidir.

²¹ Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. T.G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbuot birlashmasi.1991. 207-bet

Bugungi kundagi adabiy asarlarda ham ko`zgu va surat motivi ko`zga tashlanib turadi. Hozirgi badiiy asarlarda ham ko`zgu asosan inson aksi, uning qalbining ramzi ekanligi ko`rinadi. Lirik asarlarda ham ko`zgu motiviga murojaat qilinadi. Unda asosan ushbu ramz inson qalbi sifatida namoyon bo`ladi. Jumladan: Shukurullo ijodida ham oyna (ko`zgu) motivi falsafiy mazmun kasb etadi.

Doim to`g`ri yo`ldan yurib u xatoni bilmadi

Hech kimni qarg`amadi va duoni bilmadi.

Ammo umr so`nggida u oynada o`zin ko`rib

Xayron bo`lib tikildi muddaoni bilmadi.²²

Yuqoridagi misralarda shoir umrini bekor o`tkazgan inson obrazini ochib bergan. Ushbu misralardagi oyna motivi orqali insonning ichki dunyosi, qalbi aks etadi. Lirik qahramon umrining so`nggida oynaga qaraydi, oynada o`z umrini, qilgan ishlarini, qisqa qilib aytganda o`zining ichki dunyosini, qalbini ko`radi va umrini zoya o`tkazganini sezadi.

Oynaga o`yilgan go`zal naqshimon

Ilk sezgi qalbingdan aslo ko`chmaydi.

Bezak, ko`rki bo`lib yashaydi har on

Ko`zgu sinmaguncha u ham o`chmaydi.

Ushbu misralarda ilk sevgi qalbgaga go`zal naqsh kabi joylanadi. Qalb yaralanmaguncha u ham o`chmaydi ma`nolari ifodalanadi. Demak ushbu misralardagi ko`zgu insonning qalb ramzi sifatida gavdalanadi. Yuqoridagilardan ko`rishimiz mumkinki, lirikada ko`zgi asosan insonning qalbi ramzi sifatida namoyon bo`ladi.

²² Шукүрүлло. Танланган асарлар. Тошкент.2010.

Nasrimizning rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shayotgan adiblarimiz ijodida ham badiiy asarning g`oyaviy estetik funksiyasini, asarning mazmunini ochish uchun turli timsol va ramzlardan foydalanishlarini kuzatamiz. Ma`lumki asarda uchrovchi kichik bir detal ham badiiy asarning yoki asar qahramonining harakterini ochishga xizmat qiladi. Xususan Ulug`bek Hamdam ijodida ham shuni kuzatishimiz mumkin. Ulug`bek Hamdamning “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasida asar qahramonining ruhiyatini ichki iztiroblarini qahramonning kimligini ko`rsatish uchun ko`zgu detalida foydalangan: **“Ko`m-ko`k adirlar bag`rida mashinasini uchirtirib ketarkan endi Kozimjon alamdan tinmay labini tishlar, peshonasidagi ko`zguga ko`zi tushib qolishidan cho`chibmi, oynani tepaga qayrib qo`ygancha hadeb gaz pedalini ezgani-ezgan... Eh, qaniydi pedalni bosib mashinasini uchirgani barobarida quvib-bostirib kelayotgan achchiq hotiralardan halos bo`lish mumkin bo`lsa...”**²³

Yuqoridagi parchani o`qigan o`quvchida savol tug`iladi: “Nima uchun Kozimjon qarshisidagi ko`zguni qayrib qo`yadi?”, “Kozimjon nimadan qochadi?” Aslida asar qahramoni Kozimjon o`z manfaatini hamma narsadan ustun qo`yuvchi obraz hisoblanadi. Uning oynaga qaramaganining sababi u oynaga qarasa o`zining asl qiyofasini ko`radi, o`z vijdoni oldida javob berishda qo`rqadi. Oynaga qarasa o`zidan nafrat uyg`onishidan qo`rqib o`zining qanday razil inson ekanini anglab qoladi. Asarda ko`zgu detalini qo`llash orqali yozuvchi Kozimjonning harakterini yaqqol namoyon etadi. Shunday xulosa qilish mumkinki asarda qo`llangan ko`zgu detali insonning vijdonini uyg`otib yuboruvchi xotira, uning zoxiriy dunyosini ko`rsatib beruvchi oyna sifatida namoyon bo`ladi. Bundan tashqari U.Nazarovning “Oyna”, Omon Muxtorning “Ko`zgu oldidagi odam” asarining mazmun-mohiyatini badiiy- estetik funksiyasini ochish uchun ko`zgu detalidan qalb ramzi sifatida foydalanganligini ko`ramiz. Bu asarlarda insonning nafs-shayton qutqusi, tubanlikka tortadigan kuch, hirs-u havas darakchisi, ta`ma, manmanlik, jaholatni keltirib chiqaradigan quvvat domiga g`arq

²³ www. Ziyonet.uz. Улуғбек Ҳамдам. Узоқдаги Дилнурса

bo'lishi hikoya qilinadi²⁴.U.Nazarovning “Oyna”dramasida oyna vijdon ramzi sifatida nomoyon bo'ladi: **“Hammaning ro'parasida toshoyna bo'lishi kerak,toki har bir odam o'z qiyofasini ko'rib turishi shart”**²⁵.Yuqoridagi parchada inson hamisha o'z qalbiga,botiniy dunyosiga nazar solib turishi ,vijdon amri bilan ish tutishi,ruhiyatidagi o'zgarishlar qay tomonga ketayotganini tahlil qilib borishi kerakligi nazarda tutiladi.

Badiiy asarda ko'zgu bilan bir qatorda insonning qalbi ramzi sifatida surat detalini ham olishimiz mumkin. Mirtemirning “Surat” she'riy qissasi, , Shodiqul Hamroyevning “Suratdagi ayol”, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” , Omon Jorqiboyevning “Portret” singari asarlarida surat motivi orqali qahramonning ichki kechinmalari, eski xotiralari, umri hayot yo'li, qalbi aks ettiriladi.

Mirtemirning “Surat” lirik qissasi shoir qoldirgan adabiy meros ichida “shoh asar” ijodining gulto'ji, o'zbek she'riyatining ulkan yutuqlaridan biri hisoblanadi.

“1957-yilda nihoyasiga yetgan “Qoraqalpoq daftari”she'riy turkumidan o'rin olgan “Surat”lirik qissasi o'zining harorati,oshiq dilidan qaynab chiqqan tug'yonlari bilan o'quvchini lol qiladi.Unda keltirilgan qo'shiqlar alohida olinganda ham o'zining to'laqonligi,kuyga monandligi ,xalqchilligi ,xullas,iztirobli va hayotbaxsh she'rlardan iboratligi bilan kishini maftun etadi.O'z navbatida,ular uzviy birlik kasb etib,kitobxon qalbini iztirobga solidi,junbushga keltiradi.Eng asasiysi,xalqlar tinchligiga raxna solibgima qolmay,ular orzu-o'ylarining ,hatto sevgilarining ham toptalishiga sabab bo'lgan bosqinchilik urishlari va ularning oqibatlariga kishilar nafratini oshiradi”²⁶

²⁴ Н.Тоирова Ойна ва сурат тимсолларининг бадий-эстетик вазифаларига доир И. Ўзбек тили ва адабиёти – Т.

²⁵ Назаров У.Ўзгалар учун.Тошкент,1988.244-бет.

²⁶ А.Соліев.”Surat”dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.//O'zbek tili va adabiyoti.T.,2012,yanvar,1.82-b.

Lirik qissaning birinchi qo`shig`i “O`limlardan hatlab...”deb atalgan.

Na oltin ,na javohir edim...

Armonli bir yish shoir edim.

Zuhra bo`lmasang ham chiroyda,

Men ishqingda naq Tohir edim.²⁷

Qo`shiqning birinchi bandidan ma`lum bo`ladiki,lirik qahramon yosh shoir,shu bilan birga,xalq sevgan qahramon Tohir singari sevgi o`tida qovrilgan,yuksak orzu og`ushida bo`lgan sobit oshiq.Qo`shiqning davomiga nazar tashlaymiz:

Toshlon o`ldi ,degan kim axir?

Gulday so`ldi,degan kim axir?

Nahot poymol qutlug` ishq ahdi,

Bol bo`lurmi shunchalar taxir?

Demak,mahbubaning kutmay turmush qilganligiga ham asos bor-unga Toshlon haqida “qora xat”kelgan.Shum xabarning yolg`onligini kim ham isbot eta olardi.Lirik qahramon o`ksinadi.Keyingi misralarda lirik qahramon to`rt yil qo`ynida asrab,shirin xayollar surgan, mardlik bilan o`limga chap berishida quvvqt bo`lgan suratga boqadi.Dostonning ikkinchi qo`shig`i “Surat,Surat”deb nomlangan bo`lib,unda lirik qahramon tilsiz suratga murojaat qiladi.Shu orqali u o`z sevgisi tarixi va sevgili siymosini jonlantiradi,hissiyot va ishonchga boy unitilmas lahzalarini yodga keltiradi.

Och nazarim tushar suratga

Surat,Surat!Nega sen tilsiz?

Termulaman suratda xatga...

²⁷ Mirtemir.Asarlar.IITom.T.:“G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at”,1971.429-b.

Janglarda yor eding-ku,o,qiz!

Surat, Surat! Nega sen tilsiz?

Ushbu misralarda lirik qahramonning sevgisiga qanchalik intizorligi, jangda u bilam xayolan hamdam bo`lib bosgan qadamlari, orzu-o`ylaridan faqat shu suratgina ogoh. Lirik qahramon uchun surat tilga kirsay barchasini ochib tashlasa... Shu o`rinda surat lirik qahramon uchun barcha to`siqlarni yengib o`tishga, janglarda omon qolishiga, doimo kurashga intilishiga kuch bag`ishlovchi vosita vazifasini bajargan.

Lekin suratdagi qiz jimib qolgandek, u suratga razm solib, o`z so`rog`ini takrorlaydi, to`rt yil qo`ynida asrab, xayolan topinganligini, bularning barchasi toptalgach, qahramon qalbida o`kinch hissi u`yg`onganini aytadi.

Dostonning “Dilda qoldi...” deb nomlanuvchi qismida esa surat eski xotiralarni uyg`otib yuboruvchi “balo”ga aylanadi:

Qaqydan chiqdi bu balo surat,

Balolarga mobtalo surat,

Xotiringa tushdi yigitlik,

Kayfim oldi ajdaho surat...²⁸

Asar so`ngida lirik qahramon sevgilisining aybdorligini bilsa-da, unga o`xsgashini topolmasligini, shirin damlarning yodgorligi sifatida surati qolganligini aytadi:

Tasviringa no`noqman nochor...

Menga qoldi surati yodgor.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dostonda surat detali quyidagi vazifalarni bajargan:

²⁸ O`sha asar, 439-bet.

- 1)umid,ishonch,quvvat bag`ishlovchi kuch;
- 2) eski xotiralarni eslatuvchi, lirik qahramon tili bilan aytganda “balo” ;
- 3)sevgilisi siymosini yodga soluvchi yodgorlik.

Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida surat motivi orqali hikoyaning g`oyaviy-badiiy mazmuni ochib berilgan. Asardagi suratlar asar ahamoni bo`lgan cholning umr yo`lini ochib berishga xizmat qilgan detal hisoblanadi. Chunki chizilgan har bir suratda uning ichki dunyosi, ruhiyatidagi o`zgarishlari aks etgan.

Asarda yigit cholning chizgan suratlarini ko`rar ekan, avvaliga uning mashhur rassom bo`lganligiga ishonadi. Lekin keying suratlarini ko`rib hafsalasi pir bo`ladi. **“Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo`lsada, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuq o`rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta, gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko`zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo`yniga solingan kishan tarang tortilgan edi... Biroq bir lahzada osmon-u falakni qoplagan kuzgi qarg`alar kab suratlarga qandaydir mavhumlik yopirilib kirib kelardi.”**<sup>29</sup> Yuqoridagi parchalardan tasvirlangan suratlar hikoya qahramoning ichki kechinmalarini, hayot uo`lini aks ettirgan. U ilk suratini chizganda hayotga bo`lgan ishonchi shashti baland edi. Ammo hayoti davomida shunday kunlarga duch keldiki o`sha kunlari uning o`zi chizgan suratlarida aks etdi. Hikoyadagi qahramon yigit tili bilan aytganda – : **“Bu suratlar menga umid qo`shinlari tashlab ketgan umrning tashlandiq qarorgihlariga o`xshab tuyuldi”**<sup>30</sup> Hikoyada yigitning suratlarga qarab tushunmaganligni asar qahramoni bo`lgan rassom cholga aytganda cholning quyidagi javobidan ham asardagi suratlar uning ichki kechimalarini hayot yo`lini ko`rsatuvchi, qalbining ramzi sifatda ko`ramiz: **“- Ha, to`g`ri, biz tushunarsiz**

²⁹ www. Ziyonet.uz. Nazar Eshonqul.Maymun yetaklagan odam.

³⁰ www. Ziyonet.uz.Nazar Eshonqul.Maymun yetaklagan odam.

yashadik, har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong`u bo`lib qolgan.”³¹ Ko`rnadiki rassomning har bir surati orqali o`z hayoti, ichki kechinmalari aks etgan. Demak, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi surat detali asar qahramonining hayotini, umr yo`lini ichki kechinmalarini ko`rsatuvchi ko`zgu hisoblanadi.

Omon Jolqunboevning “Portret” hikoyasida qo`llanilgan surat, portret detallari faqatgina insonning tashqi ko`rinishini aks ettiribgina qolmay, uning ichki olamini ham yoritib bera olishi kerakligi nazarda tutiladi. Asar qahramoni bo`lgan rassom Yo`ldosh aka degan kishining suratini (portretini) chizishga qanchalik urinmasin hech uddasidan chiqa olmaydi. Chunki u insonning qalbini k`rsatib berish uchun qalamlar ham ojizlik qiladi: “ **Qo`linga top-toza politrani, mo`yqalamni olaman-u mobert qarshisida qotib qolaman: bo`yoqlar naqadar ojiz! Yo`ldosh akaning ichki dunyosini ifodalashga ularning qudrati yetmaydi. Asta kursiga o`tiranman, tugallanmagan portretg atikilib og`zaki (eskizlarini) yana birma-bir hotirlashdan, ular o`rtasidagi mushtaraklikni qidirishdan boshqa iloj yo`q.**”<sup>32</sup> Asardagi yo`ldosh aka juda samimiy, yuragi keng, oliyjanob insonki hatto, uning hayoti butunlay o`zgarib ketishiga qamalishiga sababchi insonlarga nisbatan ham hech qanday husumat saqlamaydi, hatto ularga nisbatan gumoni borligini aytishga uyaladi. Rassom yigit esa ana shu oliyjanob, samimiy insonning portretini chizishga kirishgan. Lekin u shunchaki tashqi ko`rinishni tasvirlashni xoxlamaydi, balki portretga qaraganda o`sha tasvirlanayotgan insonning qalbini ko`rgisi keladi va bir donshmandning gapini eslaydi : “**Hayotni huddi ko`zgu kabi aks ettirish hali san`at emas, san`at – o`sha ko`zgu tashqarisidagi hayot haqiqatini tasvirlashdir**”<sup>33</sup> Demak rassom yigit ham Yo`ldosh akaning shunchaki tashqi ko`rinishini tasvirlashni emas,

³¹ www. Ziyonet.uz. Nazar Eshonqul.Maymun yetaklagan odam.

³² www. Ziyonet.uz. Jorqinboyev O.Portret.

³³ www. Ziyonet.uz. Jorqinboyev O.Portret

uning ichki dunyosini, botiniy olamini ko`rsatib beruvchi ko`zgusini yani qalbini tasvirlashni xoxlaydi.

Shodiqul Hamroyevning “Suratdagi ayol” hikoyasida syujet ayol bezovta ruhining rasmga ko`chishi asosida qurilgan. Ayol hayoti mobaynida o`z gunohlarini yuvolmaydi, orzu armonlariga erisholmay, umrining so`nggi davrlarini yolg`izlikda o`tkazadi.<sup>34</sup> Asardagi yigit syraga qarar ekan, u tiniq va ravshan ko`rinmaydi. Faqatgina ko`zlari aniq namoyon bo`ladi. Uning yuzini tiniq ko`rinmaganligi sababi tirikligda gunohlarining ko`pligida. O`limidan keyin ham ayolning ruhi o`z tinchini topolmaydi, yani **“Do`zaxdan quviglan arvohtay tunlari ko`chada izg`ib yurar va uning armonlari hech qachon to`zim topmas”** edi³⁵

Demak badiiy asarlarda uchrovchi surat detli quyidagi vazifalarni bajargan:

- 1) umid,ishonch,quvvat bag`ishlovchi kuch, eski xotiralarni eslatuvchi, lirik qahramon tili bilan aytganda “balo”, sevgilisi siymosini yodga soluvchi yodgorlik. (Mirtemir, Surat lirik qissasi);
- 2) Insonning umri, ichki kechinmalarini ko`rsatuvchi qalb ramzi (Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”)
- 3) Insonning botiniy qiyofasini, ichki dunyosini ko`rsatuvchi ko`zgu (Omon Jolqunboyev “Portret”)
- 4) Chirish ramzi, gunohning ayon oqibati va hamisha inson o`z ruhini o`zi nobud qilishi mumkinligini isbotlovchi dalil (Oskar Uayld “Daryan Greyning portreti”)

Demak, folklor va badiiy adabiyotda oyna va surat detallarining g`oyaviy estetik vazifalarini yuqoridagi misollar orqali ko`rib o`tdik. Xulosa qilib aytganda, folklor namunalari oyna asosan quyidagi vazifalarni bajargan:

³⁴ Н.Тоирова Ойна ва сурат тимсолларининг бадий-эстетик вазифаларига доир И. Ўзбек тили ва адабиёти – Т.

³⁵ Хамройев Ш. Suratdagi ayol Toshkent 1994.19-bet

- ✓ ertak qahramonlarini dunyo voqealaridan xabardor etish
- ✓ uzoqdagi narsa-buyumni ko`chirib kelish
- ✓ yolg`onchining sirini fosh etish kabi vazifalarni bajargan

Badiiy adabiyotda esa oyna, surat singari detallar oynadagi inson aksi, uning ruhi, qalbi ramzi sifatida olingan, buni quyidagicha ko`rsatishimiz mumkin, ko`zgu detali:

1. Mumtoz adabiyotda, Navoiy asarlari misolida:

- ✓ To`g`rilik, adolat va qalb ramzi (“Saddi Iskandariy”, “Sabbai Sayyor”);
- ✓ Inson qalbning tasavvufiy ramzi (“Lison ut-tayr”);
- ✓ Axborot berish (“Farhod va Shirin”).

2. Hozirgi o`zbek adabiyotda:

- ✓ Inson qalbining ramzi (Lirik asarlarda)
- ✓ Vijdon ramzi (U.Nazarov “Oyna”)
- ✓ Asar qahramonining ruhiyatidagi o`zgarishlarini, asl qiyofasini, botiniy dunyosini ko`rsatuvchi vosita (Ulug`bek Hamdamov “Uzoqdagi Dilnura”, Omon Muxtor “Ko`zgu oldidagi odam”)

Surat detali:

- ✓ umid,ishonch,quvvat bag`ishlovchi kuch, eski xotiralarni eslatuvchi, lirik qahramon tili bilan aytganda “balo”, sevgilisi siymosini yodga soluvchi yodgorlik. (Mirtemir, Surat lirik qissasi);
- ✓ Insonning umri, ichki kechinmalarini ko`rsatuvchi qalb ramzi (Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”)
- ✓ Insonning botiniy qiyofasini, ichki dunyosini ko`rsatuvchi ko`zgu (Omon Jolqunboyev “Portret”)
- ✓ Chirish ramzi, gunohning ayon oqibati va hamisha inson o`z ruhini o`zi nobud qilishi mumkinligini isbotlovchi dalil (Oskar Uayld “Daryan Greyning portreti”)

✓ Insonning ruhi (Sh. Hamroyev “Suratdagi ayol”)

Xulosa qilib aytganda oyna va surat ramzlari asarlardagi gʻoyaviy estetik maqsadni ochib berishda asosiy vosita hisoblangan. Mualliflar ular orqali qahramonlar qalblarini burkagan qora pardalarni, yuzlarini qoplagan jirkanch chiziqlarini, umr yoʻlini, gunohning ayon oqibati va hamisha inson oʻz ruhini oʻzi nobud qilishi mumkinligini isbotlovchi dalili sifatida koʻrsatishda samarali foydalanganlar.

Ikkinchi bob. Oskar Uayld va Omon Muxtor asarlarida koʻzgu va surat ramzining badiiy va gʻoyaviy ahamiyati.

2.1. Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” romanida portret motivi

Oskar Uayldning Dorian Grey portreti romani 1891- yilda yaratilgan boʻlsa ham adabiyotshunoslar va oʻquvchilar orasida boʻlgan qiziqish katta. Romanning Ozod Sharafidinnov tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilinishi esa ingliz adibi ijodini oʻzbek oʻquvchilari orasida targʻib qilishda yana bir muhim qadam boʻldi.

“Dorian Grey portreti” yozuvchining roman janridagi yagona asari boʻlib, unda Uayld istedodi toʻla namoyon boʻlgan deyish mumkin. Asar O. Uayldning bir inson bilan tuzilgan garovi natijasida atiga uch hafta ichida yozib tugallangan. (Garov oʻynagan shaxs yozuvchini hech qachon roman yoza olmasligini aytgan edi). Asar nashr etilishi bilan muallif ahloqsizlikda ayblana boshlandi. Shunda Uayld tanqidlarga soʻz boshida keltirgan hikmatli ibora bilan oʻzi javob beradi: “Axloqiy yoki axloqsiz kitoblar boʻlmaydi. Faqat yaxshi yozilgan yoki yomon yozilgan kitoblargina boʻladi xolos. Tomom-vassalom.” Oskar Uayldning oʻzi takidlaganidek, “agar saʼnat asari bahslarga sabab boʻlsa, demak unda allanechuk murakkab va muhim narsa bor”³⁶. Lekin jiddiy yondasgilsa romanda tanqidchilar

³⁶ www. Adabiyot.uz.

tomonidan e'tirof etilgan shaxsiyatparastlik va ahloqsizlik targ'iboti emas, balki shu xislar qo'li bo'lgan insonning fojiasi ko'rsatib berilganligini anglash mumkin. Mashhur yozuvchi Frensis Skot Fidjerald og'liga yozgan maktubida ushbu asar o'n yeti yoshdagi o'smirlarga juda ham zarurligi, chunki u jiddiy mulohaza qilishga undashi va o'z vaqtida yozuvchiga ham ta'sir o'tkazganligi haqida yozgan edi.

Oskar Uayldning Dorian Grey portreti asari o'ziga xos tasvir yo'siniga ega . unda yaxshilik va yomonlik , muhabbat va nafrat insonni tubanlikka tortuvchi illatlar aks etgan . asarning mazmun mohiyati , qahramonlarning nutqi , xatti harakatlari asosiy o'rinda portret detali orqali ochib beriladi . Rassom Bezil Xolluord tomonidan chizilgan portret asarning so'ngiga qadar asosiy detal bo'lib xizmat qiladi . Chunki ushbu detal ham rassom Xolluordning ichki kechirmalari ham Dorian Greyning umr bo'yi qilgan gunohlarini ko'rsatuvchi qalb o'zgarishlarini ifodalovchi ko'zgu sifatida tasvirlanadi . Ushbu portret asar so'ngida rassom Xolluordni ham , Dorian Grey ni ham o'limiga sabab bo'ladi . Ushbu asardagi portret detali vijdon , inson asl qiyofasini ko'rsatuvchi ko'zgu vazifasini bajaradi .

Rassom Xolluord suratni bor mehri bilan ishlov beradi , portret ishlanayotgan Dorian Greyning ichki dunyosi oliyjanob vazifalarini , ayniqsa o'zini unga bo'lgan mehrini , o'z ichki kechirmalarini singdirib yetkazadi . Buni uning Lord Genriga bergan javobidan bilib olamiz : “ bu rasmda mening butkul jonu tanim singib ketgan”³⁷. U o'zining Dorianga bo'lgan mehrini boshqalarga bildirgisi kelmaydi . Mehr bilan chizilgan har qanday portret , sirasini aytganda , rassom qarshisida suratga tushmoq uchun o'tirgan odamning emas , rassomning o'z portretidir . Rassom ishlagan portretida qarshisida o'tirgan odam emas o'z o'zining qiyofasini ochib beradi. Bezel ushbu suratni ishlayotganida Dorian Grey haqiqiy vijdonli qalbi pok bola edi. Lord Genri shunchalik Dorianga ta'sir o'tkazadiki ,

³⁷ Oskar Uald “Dorian Greyning portreti”. Jahon adabiyoti jurnali, 2000. 1-son, 5-bet.

Dorianga Lord Genridan kabi oliyjanob maslahatgo'y yo'qday tuyuladi. Lekin Lord Genri uning hayotini barpod bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Dorian portretga nazar solar ekan o'zizning husni tavajjuhini birinchi marta kashf qiloyatganday bo'ladi va shu ondan boshlab Lord Genri tasiridan Dorian boshqa Dorianga aylana boshlaydi. Unda shuhratparastlik, butun umr navqiron bo'lish istagi paydo bo'ladi. Naqadar qayg'uli! Men qariyman, jirkanch bir badbashara kimsaga aylanaman, suratim esa manguga navqiron bo'lib qolaveradi. U hech qachon bugungi iyun kunidagidan ko'ra qariroq bo'lib qolmaydi.... Oh ko'shki buni aksi bo'lsa? Ana shu suratim qarisa-yu, men mangu yoshligimcha qolaversam. Buning uchun hatto jonimni ham beraman! Shu niyatlarni tilar ekan unda o'zga bir hayolat dunyosi paydo bo'ldi, abadiy navqiron bo'lish niyati uni xudbinlikka, shuhratparastlikka boshladi. Buni rassom Xolluord ham sezardi. Ular ketayotganda portretni ko'rsatib: Men haqiqiy Dorianning yonida qolay deb javob beradi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, rassom Xolluord uchun o'zi ishlagan portret uning ichki dunyosini ko'rsatib bergan. Dorian Grey aslida yomon inson emas edi, tajribasizligi, o'z fikriga ega emasligi natijasida Lord Genrining ta'siriga osongina tushib qoladi. Har safar Dorian o'zgarmoqchi bo'lganida, vijdoniga ko'ra ish tutaman deganida Lord Genrining ta'siri tufayli o'z qolipiga tushib qolar va yana bemani nomaqbulchiliklar qilar edi.

Dorian ruhiyatidagi o'zgarishlarning suratda aks etishi Sibila Veynga shavqatsizlik qilgan kundan boshlanad: "Ko'zidan oqayotgan shoshqator yoshlardan bo'g'ilib Sibila yaralangan jonivorday yerda to'lg'onib yotar, Dorian Grey bo'lsa bejirim lablarida istehzoli kulgu bilan unga takabburona jirkanish aralash qarab turardi. Muhabbatidan ayrilib qolgan odamning iztiroblarida hamisha alaqanday kulguli bir narsa bo'ladi. Sibilaning so'zlari ham, ko'z yoshlari ham Dorianga juda bema'ni ko'rindi va uning g'ashiga tegdi xolos"³⁸. Ushbu satrlardan ko'rinadiki Dorianning ruhiyatida salbiy o'zgarishlar paydo bo'ldi, Sibila Veylning

³⁸ O'sha asar 7-bet

haqiqiy pok muhabbatini kamsitib, qalbida takabburlik xudbinlik kabi illatlar uyg'ondi. Uning qalbidagi, ichki dunyosidagi o'zgarishlar uning portretida aks eta boshladi, bu asardan keltirilgan quyidagi parchada ko'rinadi: "U eshik tutqichiga endi qo'l cho'zgan ham ediki nigohi Bezil Hollourd chizgan o'zining portretiga tushti. Dorian portretni ko'rdu seskanib ketdi. Allanarsaga lol qolgan odamday bir qadam orqasiga tislandi kegin portret oldiga bordida unga uzoq tikilib qoldi. Derazalarga tutilgan sariq ipak pardalar chiroqning yog'dusini ancha qirqib qo'ygan edi. Shu xira shulada suratda uning yuzida qandaydir o'zgarish sodir bo'lganday ko'rindi uning chehrasidagi ifoda nechukdir boshqacha edi-qilting olgan lablarida shavqatsizlik sezilib turardi. U larzaga tushti va shosha-pisha stol ustida yotgan gardishi fil suyagidan ishlangan va muhabbat farishtalarining tasviri bilan bezatilgan ko'zguni qolga oldi. Dorian ko'zguga sinchiklab ancha tikildi. Yo`q, uning qirmizi lablarini portretidagi kabi g'aroyib jilva xunuk qilib turgani yoq. Dorian ko'zlarini ishqaladi va portretga yaqin borib yana o'zini diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi shubha bo'lishi mumkin emas- bu yoqa hech kim qo'l tekizgani yo`q. Holbuki, aniq ko'rinib turibdi yuz ifodasi ancha o'zgargan. Yo`q, unga shunaqa tuyilgani yo`q daxshatli o'zgarish yaqol ko'zga tashlanib turibdi"³⁹.

Demak, Dorian portretga qaraganida hayron qoldi. Aslida shuni o'zi xohlagan edi: "To'satdan uning xotirasiga portret ishlab bitirilgan kuni ustaxonada Bezil Holloud tomonidan aytilgan gap gavdalandi. Ha, Dorian bu gapni juda yaxshi eslab qolgan, o'shanda u mutlaqo aql bovar qilmaydigan bir xohish bildirgan edi- koshki edi uning o'rnida portret qarisa, Dorian esa hamisha navqironligicha qolaversa, uning husni tavajjuhi o'ngib, tussislanmasada har qanday ehtirolar, sho`xliklar va gunohi azimlarning muhri portretning chehrasiga tushsa. Ha u istadiki, istiroblar va og'ir o'ylarning izlari uning tasviridagina chuqur ajinlar qoldirsin o'zi esa jamikiy tarovatini va jozibasini endigina ilk daf'a anglab yetgan yoshligiga xos latofatini mangu saqlab qolsa".

³⁹ O'sha asar. 12-bet

Bu yerda portretni shuhratparastlikni uyg'otgan detal deb olsa bo'ladi. Chunki Dorianning nazari portretga tushishi bilan bir umr navqiron bo'lishni, barcha gunohlarining muhri o'z qiyofasida emas suratda aks etishini xohladi. Uning ilk marta qilgan shafqatsizligi portretda aks etgan edi. Buni ko'rgan Dorianning hayolida quyudagi fikirlar o'tadi: "Portretda hayotining siri muhirlanib qolibdi. Portret istagan fursatda uni hammaga oshkor etib qo'yishi mumkin. Portret uni o'zining husnini sevishni o'rgatdi, nahotki shu portret endilikda o'zini o'z qalbidan jirkanishga o'rgatsa endilikda u suratga qaysi ko'z bilan qarasin". Dorian portretda o'z qalbini ko'radi va gunoh ishlarga qo'l urmaslikka intiladi. Bu portret undan buyon uning vijdoni bo'lib hizmat qiladi. Portret Dorianga Sibila Veynga nisbatdan shafqatsiz bo'lganini adolatsizlik bilan muomila qilganini tushinib olishga yoqdam beradi. Bu o'rinda portret detali vijdon, cherish ramzi, inson o'z ruhini nobud qilishi mumkinligini isbotlovchi dalil vazifasini bajaradi.

Portretdagi o'zgarishlardan keyin Dorian vijdonan ish tutmoqchi bo'ladi. Buni Lord Genriga bergan javobidan bilib olish mumkin: "Men mutloqo baxtiyorman. Birinchidan, men vijdon nima ekanligini tushinib oldim. Bu siz aytgan narsadan butkul o'zga narsa ekan, Gari. U bizning jismimizda mavjud narsalar ichida eng ilohiysi ekan. Siz endi buni ustidan ortiq kulmang, loqil mening huzurimda vijdoni mayna qilmang. Men sof vijdonli odam bo'lmoqni istayman. Men ruhimning badbashara bo'lishiga yo'l qo'ymaymang"⁴⁰. Yuqoridagi satrlardan hulosa chiqarib shuni aytish mumkinki portret insonning ruhini ko'rsatuvchi detal sifatida nomoyon bo'ladi. Dorianning hayotidagi har bir voqearalar ro'y berishi bilanoq, ularning xabari portretga yetib keladi. Portretda tirik Dorianning qilg'iliklari aks etmaydi-yu uning ruhiyatida qalbida sodir bo'layotgan o'zgarishlar aks etadi. Dorian homlik qilib sodir etgan har bir nojo'ya ishning muhri suratga tushadi. Sekin-asta surat aql bovar qilmaydigan darajada badbashara bo'lib boraveradi. Portret Dorian uchun sehirli ko'zgudir. U bu ko'zguda bir zamonlar birinchi marta o'zining haqiqiy basharasini ko'rgan edi, endi esa o'zining qalbini ko'radi. Bu

⁴⁰ O'sha asar. 35-bet.

o'zgarishlar dastavval, Dorianga huzur-xalovat baxsh etadi, surat unga o'zining eng teran o'y-u niyatlarini o'rganish imkonini beradi. Bir muddat Dorian ibodat qilib o'zi bilan portret o'rtasidagi bu g'ayritabiiy aloqani barham topishi to'g'risida tavallo qilmoqchi ham bo'ladi. Bir vaqtlar u shunday bo'lishini tilagan edi o'shandan kegin portretda o'zgarish aks etgan edi, ajab emaski, yana bir ibodat qilsa portretdagi o'zgarishlar barham topsa edi. Lekin Dorian abadiy navqironlikdan voz kecha olmaydi. Portretga bora bora Dorianning boshiga yog'iladigan sharmandalik muhri tusha boradi. Dorian o'zining qanchalik tubanlashib ketganini ko'rsatuvchi sharmandalik muhri aks etayotgan suratni hech kimga ko'rsatishni xohlamaydi. Chunki portretda uning qalbidagi ruhiyatidagi tentakliklar shuhratparastlik gunohlarining ayon oqibati aks etar edi.

Portretda rassom Hollourdning ichki kechirmalari ham aks etgan edi. Lekin Dorian uni payqamaydi, u faqatgina o'zining go'zaligini kashf etgan edi. Aslida esa portretning shunchalik o'xshaganligi ajoyib ishlanganligi rassomning ichki dunyosiga bog'liq bo'lgan. Rassom Hollourd uchun Dorian bir iloh darajasiga ko'tarilgan edi. Buni uning quyudagi gaplaridan bilib oladi: "Bu gal endi sizning shaxsiyatingiz mening ko'z o'ngimda bevosita hech qanday parda bilan to'silmagan holda nomoyan bo'ldi. Biroq suratni ishlatotganimda menga shunday tuyuldiki goyo har bir bo'yoq mo'yqalamning har tegishi mening sirimni borgan sari ko'proq namoish etmoqda edi. Men qo'rqib ketdim, odamlar portretni ko'rsalaru sizni bir iloh ornida yaxshi ko'rishimni bilib olsalar nima bo'ladi? Men sezdimki bu portretga qalbmni keragidan ko'proq tasvirlab yuboribman"⁴¹.

Demak rassomning Dorianga bo'lgan mehri uning suratida aks etgan edi. Shundan ko'rinadiki asardagi portret qalb ramzi sifatida gavdalanadi. Dorian Greyning tili bilan aytganda "har bir suratda allanechuk taqdir muhri bor. Surat o'zining ayricha bir hayoti bilan yashaydi". Yani suratga insonning ruhi qalbi ko'chib o'tishi nazarda tutiladi. Dorianning portreti har soat sayin, har hafta sayin

⁴¹ O'sha asar. 108-bet. Jahon adabiyoti 2-son, 2000 yil.

o'zgarishta davom etadi. Uning har bir qilgan xatti-harakati gunohlari qalbining chirishi suratda aks etadi: yuzlari tarovatini yo'qotib ajin bosib, shilvirab qoladi, ko'zlaridagi chog' so'nib husnini yo'qotadi. Dorian, dastavval portretga nazar solib huzurlangan bo'lsa, keginchalik o'z qalbini jirkanch bir tarzda irib borayotganini xohlamaydi. Shuning uchun portretni uyining bir burchagidagi bolaligi o'tga xonaga olib chiqib qo'yadi. Lekin har qancha yashirmasin uning shuhratparast xudbin gunohkor ekanligi haqidagi gaplar tarqala boshlaydi. Lekin shunda ham Dorian hech nimani o'ylamaydi, qo'lida Lord Genri bergan ko'zguni olib, portretning qarshisida uzoq turib qolardi. U goh suratdagi borgan sari kishini jirkantiradigan darajada bujmayib qarib borayotgan basharaga tikilar, goh esa qo'lidagi ko'zgudan boqib turgan navqiron yigitning go'zal chehrasidan ko'zini olalmas edi. Portretdagi qiyofa bilan ko'zgidagi chehra o'rtasida tafovut kuchaya borgan sari Dorian bundan ko'proq lazatlanar edi. U portretdagi chehraning peshonasini qoplagan son sanoqsiz ajinlarni, osilib tushgan durdoq lablar tevaragida g'ujg'on o'ynagan mayda chiziqlarni sinchko'v nazar bilan tomosha qilar ekan, undan huzur tuyar edi. Portretdagi abjag'i chiqib ketgan, xizmatini o'tab bo'shashib qilgan vujudini tahqirlaydi. Aslini olganda u o'zining qalbining ustudan kular o'z ruhiga azob berar edi, borgan sari qalbining tubanlik botqog'iga botib borayotganini anglamasdi. Ba'zan u vijdonini boy berib qo'yganini, diyonatidan mahrum bo'lib qolganligi to'g'risida o'ylar, o'zidan, suratidan jirkanib ketar, ba'zan esa xudbin odamga xos ichki g'ururga to'lib toshardi.

Asarda portret Dorian uchun har bir kunini aks ettiruvchi kundalikka aylangan edi. Bu kundaligini uning portretini ishlagan, uning nazlida jamiyki illatlari sharmandaliliga sababchi bo'lgan odam ko'rishini uning hayoti davomida qilib ko'rgan kirdikori yaramas xotiralar qiynashini xohlaydi. Aslini olganda bu ishlarning boshiga tushishiga o'zining tilagi sababchi bo'lgan edi. Dorian Greyning qalbini bilmagan inson uning tashqi ko'rinishiga qarab vijdonli oliyjanob inson deb o'ylaydi. Uning haqida ko'plab yomon galarni eshitgan bo'lsa ham ularga ishonmagan rassom Hollourd Dorianing aslida qanday inson ekanligini o'zi

ishlagan portretni ko'rganidan kegin anglaydi: "Daxshatga tushgan rassomning bo'g'zidan faryod sadosi yangradi. G'ira-shira zulmat ichida u daxshatli bir basharani ko'rdi. Suratdagi bu badbashara chehra unga qarab istehzo bilan kulib turardi. Bu basharani ifodasi yuraklarni darg'azab qiluvchi, ularni jirkantiradigan allanarsa bore di. O somoviy qudrat! U axir Dorianning basharasi-ku o'zgarishlar har qancha muthish bo'lmasin ular Dorianning ajib husnini butunlay yo'q qilib ulgirmagan edi"⁴².

Rassom Hollourd portretga qarab Dorianning qalbini, ichki kechilmalarini ko'rdi. Uning iloh deb sig'ingani aslida iblis bo'lib chiqti: "Uning ko'zlari iblisning ko'zlari-ku". Rassomning xafsalasi pir bo'ldi va Dorianga tavba qilishini ayti. Uning gaplaridan qizishib ketib quturgan vaxshiy hayvondikiga o'xshab g'azabi uyg'ongan Dorian yana bir mudhish gunohga qotilikka qo'l urdi. O'zining portretini ishlagan rassom Bezil Hollourdning o'limiga sababchi bo'ldi. Shunday bo'lishini ko'ngli sezganday rasson Hollourd Dorian Greyni uchratgan kunida ko'nglidan "allaqanday ovoz hayotimdagi mudhish bir burilish arafasida turganimdan darak beradi, g'ira-shira sezib turibmanki, taqdir men uchun g'aroyib shodmonliklar tayyorlab qo'ygan va meni shunga yarasha tubsiz azob uqubatlar ham kutyapti" degan fikrlar o'tgan. Xuddi shunday ham bo'ldi, u Dorianning portretini chizgan kunida uni iloh darajasiga ko'targan, unga shodlik baxsh etgan, lekin jirkanch portretni ko'rgach xuddi iblisni ko'rgandek daxshatga tushadi. Dorianga nisbatdan nafrat uyg'onadi. Uning uchun Dorianning portreti ko'rgazmasining eng sarasi hisoblanar edi, afsuski uning chizgan surati o'z umriga zomin bo'ldi. Demak portret asarda shodlik va azob-uqubat keltirish vazifasini ham bajaradi.

Yillar o'tgan sari Dorianning gunohlari, qing'ir ishlari ko'payib, uning sehirli ko'zgusi hisoblangan suratda daxshatli, jirkanch qiyofa aks etadi. Bora-bora uning qalbi chirishga kelib qoladi shundan so'ng uni qo'rquv hissi chulg'ab oladi. U

⁴² O'sha asar . 15-bet. Jahon adabiyoti 3-son, 2000 yil

o'zgarishni boshqa odam bo'lishni xohlaydi. Hayotidagi o'zgarishlarga o'zi aybdorligini, yoshligini o'zi bulg'aganini qalbini o'zi rasvo qilganini, hayoloti razolat osmoniga parvoz qilishga o'zi erk berib qo'yganini va bundan bag'ritoshlik bilan lazzatlanganligini anglardi. Shundan so'ng Dorian ko'zguni qo'lga oldi. Mash'um suratda o'zgarishlar sodir bo'lganini birinchi marta payqab qolganidagi mudhish kunda ham u ko'zguni ana shunday qo'lga olgan edi. Ko'zguni olib uning yarqiroq sathiga ko'z yoshlaridan xira tortgan alang-jalang nigohini tikdi. Bir vaqtlar Dorianni jon dilidan yaxshi ko'rib qolgan bir kimsa unga maktub yo'lagan edi. Maktub quyudagi so'zlar bilan tugalanar edi: "Dunyo o'zgacha bo'lib qoldi negaki unga siz, yani fil suyagi-yu oltindan bino qilingan bir inson keldi. Dudoqlaringizning shakli-shamoilida yana qaytadan jahon tarixi o'z ifodasini topgan". Hozir unga sanamday sig'inib aytilgan shu so'zlar Dorianning esiga tushdi va ularni ichida qayta-qayta takrorlay boshladi. Biroq bir daqiqa o'tib o'tmay uning husni jamoli o'ziga juda hunuk ko'rinib ketdi va ko'zguni yerga otib urdida parcha-parcha qilib tashladi. U ko'zguga qaraganda o'zining jirkanch gunohlarga to'la qalbini ko'rgan edi. Aslida Dorianni hayotini rasvo qilgan narsa uning husni-jamoli, ana shu o'zi tilab olgan chiroy bilan mangu navqironlik edi. Ana shular Dorianni halokat yoqasiga olib keldi. Agar shular bo'lmaganda uning hayoti pokiza bo'lar edi. Dorian shuni anglab yetdiki, uning husni bor yo'g'i bir niqob bo'lib chiqdi, mangu navqironlik esa tahqirdan o'zga narsa emas edi. Dorian so'nggi bor umid bilan portretga nazar tashladi u o'zini o'zgarganman deb o'yladi, suratda ham biror o'zgarish ro'y berganini kutdi. Lekin hech qanday o'zgarish yo'q. Faqat endi ko'z qarashlarida allanechuk mug'ombirlik bor edi, lablarini ham riyokorona istehzo burushtirib turardi. Suratdagi odam hali ham juda jirkanch, avvalgidan ham jirkanchliroq qo'lidagi qizil dog' esa yanada yarqirab ko'rinar, yaqinda to'kilgan qonga o'xshardi. Dorianni titroq bosdi. Demak umridagi bittayu-bitta ezgu ishni qilishga uni quruq shuhratparastlik da'vat etgan edi. Uning uchun portret o'z vijdoni, ruhi edi. Barcha azoblardan qutulish uchun o'z vijdonini mahv etmoqchi bo'ldi. Portretni va u bilan bog'liq barcha xotiralarni yo'q qilish istagi paydo bo'ldi, o'tmishini o'ldirsa ozodlikka chiqishini o'ylaydi. Portretidagi

qalbining g'ayri tabiiy hayotiga hotima qo'yishi va bu muhim bashoratlar-u ogoh qilishlar to'htagandan so'ng u yana yangidan xotirjam hayot boshlayman deb o'yladi va jon holatda pichoqni suratga sanchadi. Aslida Dorian o'z ruhiga pichoq sanchgan edi va u o'zini halok etdi. U o'lgandan so'ng portretidagi barcha o'zgarishlar yo'qolib o'z holiga keldi, uning ruhiyatidagi barcha yovuzliklar suratda aks etgan jirkanchli holatlar Dorianga o'tgan edi. Aslida Dorian o'zini-o'zi qurbon qildi. O'z tili bilan aytganda abadiy navqironlik uni halok etadi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, portretidagi qalbining g'ayri tabiiy hayotiga hotima qo'yishi va bu muhim bashoratlar-u ogoh qilishlar to'htagandan so'ng u yana yangidan xotirjam hayot boshlayman deb o'yladi va jon holatda pichoqni suratga sanchadi. Portret detali oddiy detal emas, balki u muhim vazifani bajaradi. Asarning g'oyasi shu detal asosida yoritiladi.

2.2. Omon Muxtorning “Ko'zgu oldidagi odam” asarida ko'zgu detalining badiiy-estetik funksiyasi

Taniqli o'zbek adibi Omon Muxtor esa ayniqsa mustaqillikdan so'ng yaratilgan asarlari bilan o'zbek adabiyotiga o'ziga xos nafas olib kirgan el suygan ijodkorlardan xisoblanadi. Uning “To'rt tomon qibla” trilogiyasi, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Aflotun”, “Navoiy va rassom Abulxayr”, “Xotin podshoh”, singari romanlari adabiyotshunoslar va kitobxonlar o'rtasida baxs va munozaralarga sabab bo'ldi. Ba'zilar O. Muhtor romanlarini G'arb moderi adabiyotga taqliddan yozilgan, milliylikdan yiroqda deb bilsa, boshqalar uni o'zbek modern adabiyoti namunasi deb baholaydi. Adibning takidlashicha: “Sharq; adabiyotida ham fantastika, detektiv, jaxon adabiyotiga xos hamma belgilar bor. Inkor etmayman, G'arbdan ham o'rganaman, biroq Sharqdan ko'proq o'rgandim.” So'ngi yillar adabiyotshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotda O. Muhtor ijodi ham o'rganish ob'yekti bo'lib xizmat qilayotgani bejiz emas.

Yozuvchi asar nomlanishiga olib chiqqan ko'zgu ramzi bosh qaxramonlar ichki dunyosi, ruhiy olamidagi yashirin jihatlarni, ular qalbining Raxmoniy va Shaytoniy taraflarini ochib berishta mohirlik bilan qo'lanilgan. Asarda ko'zgu

ramzida o'ziga xos ruhiy va falsafiy vazifalar yuklatilgan. E'tibor qaratilsa, psixologik timsonlardan foydalanish asarning badiiy qurilmasi – syujeti va kompozitsiyasiga, uning obrazlari strukturasiga ham o'z ta'sirini o'tkazganligi ma'lum bo'ladi. Adabiyotshunos Y. Solijonov bu borada fikr yuritar ekan, yozuvchi shartli – ramziy obrazlarni o'zi tanlagan mavzu va muammo, konflikt va xarakterlarni to'laqonli ifodalashga xizmat qildirishni nazarda tutganligini takidlaydi.

“Ko'zgu oldidagi odam” va “Dorian Greyning portreti” ning yaratilishiga turtki bo'lgan omillar, tarixiy-falsafiy asos turlicha bo'lishga qaramay ulardagi g'oya va obrazlar talqini bir-biriga juda yaqin.

Birinchidan, Omon Muhtorning “Ko'zgu oldidagi odam” romanidagi ko'zgu detali va Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” romanidagi portret detallari qahramonlarga tosh oyna singari ularning qalb o'zgarishlarini ko'rsatib turuvchi timsol nomoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, asardagi Lord Genri va Siroj muallim obrazlari iblis qiyofasida keladi. Aslida, xar ikki asar syujetiga Faustning abadiy navquronlik uchun iblisga jonini bergani xaqidagi rivoyat asos qilib olingan.

O. Uayld romanidagi Lord Genri obrazi salbiy ta'lim qilishi bilan Siroj mullimga juda o'xshash. Asar boshida Lord Genrining do'sti rassom Bezil Xolluord unga: “Hech qachon biror-bir vijdonga daxldor gap gapirmaysan va xech qachon biron- bir vijdonsiz ish ham qilmaysan”-deydi.

Siroj muallim xaqida odamlar qanday yaxshi fikirda bo'lsalar Dorian siymosida ham o'z orzu qilgan ideallarini ko'rishadi.

“Inson aqlli, ezgu chiroyli bo'lishi mumkin.

Lekin u o'zini aqlli, ezgu, chiroyli qilib

Ko'rsatishi ham mumkin.

Bu ikkisi bir narsa emas....”

O. Muhtorning “Ko’zgu oldidagi odam” romani bosh qahramoni hayotidagi sodir etgan chigal va gunoh ishlaridan afsuslanar ekan, oynada o’z shakli qolib boshqa bir shakl aks etishidan qo’rqib yashaydi. U o’ziga “Bu ozi nimadan boshlandi, men qachon bunday tasqara odamga aylanib qildim”, - deb savol beradi. Vali o’z qilmishlari haqida o’ylarkan, qalbi isyon qilgan paytlarda, insonning pok va no pok holatini, odamlar goho ruhi, ko’ngli kirlanib, hayvonlardan battar qabihliklar qila olishlarini bilar edim. Bu to’g’rida o’ylamagam-o’ylashdan qochgan edim deydi. Gohida, u o’ziga, sen nimagadir qiziqqaning uchun emas, tubanlashib ketganing uchun, bo’yningdagi gunohlar uchun shu kuyga tushding deydi. Dunyoda jazo, javob borligi uni taxlikaga solidi. Men Hanifa to’g’risida Alvasti, o’z to’g’rimda iblis deb o’ylayman deydi.

Muallif Siroj muallim obrazi ortida iblis obrazi yashiringaniga bir necha o’rinlarda ishora beradi. Xususan, Vali Siroj muallim ortida yashirinib yotgan sirning tagiga yetganida u bilan suxbat ko’rayotgan ham qandaydir qo’rqish alangani eslatayotgani, orqasi va oyoqlari gavdasiga nisbatan kattaroq ekanligini payqaydi. “-Iblis!-deb yubordim men beixtiyor.-Bu Iblis-ku, axir!”

Umuman olganda, Vali va Dorian Grey badiy personaj sifatida turli davr, muhit va millatga mansub bo’lsa-da ular o’rtasida qandaydir yaqinlik, umumiylik bordek tasavvur o’yg’onadi. Bizningcha, Omon Muhtor bosh qaxramoni Valining Dorian Greyga yaqinligi ularni g’o’rligi, ximoyasizligi’ hayotiy tajribasizligidadir.

“Ko’zgu oldidagi odam” va “Dorian Greyning portreti” asarlarida Siroj muallim hamda Lord Genri timsollarida bosh qaxramonlar Vali va Dorian Grey yo’ldan ozdiruvchi, dunyodagi barcha gunoh ishlarni chiroyli ko’rsatib, ularni gunoh ishlarga undovchi inson qiyofasidagi shayton obrazlari tasvirlangan.

Jismimizdagi a’zolarimiz ichida eng ilohiysi va mukammali qalbimiz bo’lib, u inson ichki dunyosining ko’zgusi ham sanaladi. O. Muhtorning “Ko’zgu oldidagi odam”, U. Nazorovning “Oyna”, O. Uayldning “Dorian Greyning portreti”

asarlarida oyna, ko'zgu portret singari badiiy detallardan qahramonlarimizning qalb ramzi sifatida foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Bu asarlarda insonning "nafs-shayton qutqusi, tubanlikka tortadigan kuch, xirsu xavas darakchisi, tama', manmanlik, jaxolat, faxshni keltirib chiqadigan quvvat" domiga g'arq bo'lishi haqida hikoya qiladi.

Xalq orasidagi oynani sindirish marhum ruhini jonsizlantirishi mumkinligi haqidagi aqidalardan kelib chiqib O. Muhtor va O. Uayld asarlarida singan ko'zgudan qahramonlar hayotining intihosini anglatuvchi ramz sifatida foydalanilgan, deb xulosa chiqarish mumkin.

"Ko'zgu oldidagi odam" qahramoni Siroj muallim ko'zguga o'z shakli qolib badbashara bir qiyofani ko'radi. U bundan darg'azab bo'lib Ko'zguni sindiradi va shu kuni o'zi ham xalok bo'ladi. Bosh qahramonlardan biri Valini oyna o'zi singanmidi yoki uni Siroj muallim sindirganmi degan savol qiynaydi. Vali Siroj muallim xaqida so'rab borganda kelini Sojidadxon: "Bilasizmi, dadam yo'lakda turgan ko'zgu oldida ba'zan o'ymalashib qolardilar. Shunaqa odatlari bor edi" – deb aytadi. Haqiqatdan ham baxtsiz hodisa ro'y bergan kuni Siroj muallim Ko'zguga ko'p tikilib qolib, keyin uni so'kib, sindiradi. Ozini qiynab kelayotgan savollarga Vali:" ...Siroj muallim og'zi yuziga nisbatdan kattaroq ekanligini aytmaganda, kelishgan kishi! Lekin, u oynaga qaraganda o'z shakli qolib, ba'zan badbashara bir shakl aks etardi! Bunga chidayolmagandan ko'zguni sindirgan edi" degan javob oladi.

O. Uayld qahramoni Dorian Grey o'z ajali yetgan kuni birinchi bor mash'um suvratini tomosha qilmoqchi bo'lganda qo'liga ko'zguni oldi va unga tikilib qarab, o'z husnu-jamoli o'ziga tasqara bo'lib ko'rindi. U ko'zguni yerga otib, ayog'I bilan tepkilab parchaladi. U ham Siroj muallimday ko'zguni sindirgan kuni o'z ajalini topadi.

O. Uayld asarda portretidan asosiy motiv sifatida foydalanib, surat va uning o'zgarib borishi orqali inson qalbi, ruhiy dunyosidagi o'zgarishlarning ramziy

timsolini yaratadi. O. Muhtorning “Ko’zgu oldidagi odam” romanida oyna va O. Uayldning “Dorian Greyning portreti” romanidagi portret cherish ramzi, gunoxning ayon oqibati va hamisha inson o’z ruhini o’zi nobud qilishi mumkinligini isbotlovchi dalil sifatida keladi.

O. Muhtor va O. Uayld shayton, iblis obrazlaridan asarlarning g’oyaviy-estetik maqsadini ochishga unumli foydalangan bo’lib, Siroj muallim hamda Lord Genri timsollarida bosh qaxramonlar Vali va Dorian Grey ni yo’ldan ozdiruvchi, ularni gunoh ishlarga chorlovchi inson qiyofasidagi shayton o’brazlari tasvirlangan.

“Ko’zgu oldidagi odam” va “Dorian Greyning portreti”da ilgari surilgan g’oyalar mushtarakligini mualiflarning “Insonning komil inson bo’lishi yo’lidagi bir jarayonni qalamga olish” ga qo’l urganliklariga namayon bo’ladi. Mazkur asarlar yaqin yuz yil vaqt oralig’ida yaratilgan bo’lsa-da, ularni ezgulik bilan yovuzlik o’rtasidagi kurash, “inson” “meni”ning o’zligini anglatish uchun kurashi, ichki ziddiyat, ma’naviy-axloqiy qarama-qarshiliklar jarayoni” mavzusi birlashtirib turadi.

Yangi yo’nalishdagi romanlar odatdagi an’anaviy ijod ma’suliga o’xshamaydi. Ularda ijodkorning odam va odam xususidagi konseptsiyasi qahramonlari o’z yo’nalishida o’z ifodasini topadi. Shundan mazkur asarlarni dastlab o’qigan kishi ularning zamirida yotgan g’oyani ilg’ab olishi va qalbiga singdirishi qiyin. Chunki, kitobxon bevosita qahramon bilan emas, uning tafakkuri bilan munosabatga kirishadi, qahramon esa yozuvchi tomonidan yaratilgan inson emas, tabiiy harakati, shuuri ila go’yo o’zini-o’zi yaratgan (albatta, shartli ravishda), yozuvchini o’z ong oqimi yo’nalishiga soladigan intellektual shaxsdir. Lekin adabiyotshunoslik ilmidan ma’lumki, insonni bir holatdan ikkinchi holatga soladigan ezgulikka undaydigan, komil insonga aylantiradigan narsa shakl. Katta falsafiy tafakkur emas, shu tafakkurming asos-zamirida yotgan mohiyatdir. Agar biz hozirgi manfaat shu mohiyat nuqtai nazari bilan yondashsak, ular shaklan yangi bo’lgani bilan mazmunan asl o’zbek adabiyotini eslatadi.

Omom Muxtorning “Ko’zgu oldidagi odam” romani shu siradagi asardir. Romanning bosh qahramoni Vali asar syujetini tashkil qilgan Siroj muallim va uchuvchi Badalbek kabi obrazlar o’limi sababini aniqlashga qanchalik intilsa, kitobxon ham shunchalik bilishga harakat qiladi. Oqibatda, asar qahramoni bilan kitobxon o’rtasida farq yo’qoladi. Buning sababi syujet chizigini voqelik, qahramon ongi yo’nalishi tashkil qilganligidadir. Bu ong oqimi o’z navbatida kitobxon ong oqimi bilan uyg’unlashib ketadi. Oqibatda, ikkalasi. Ya’ni, qahramon - Vali bilan kitobxon masala mohiyatini bilishga intilgan yakka shaxsga aylanadi. Ularning tafakkurlari bitta masala yomon yo’naladi.

Romanda Siroj muallim va uchuvchi Badalbek haqida bosh qahramon Vali nuqtai nazaridan shunday axborot beriladi: “Siroj muallim odamlarga kam kirishib. janjallashib yursa hamki. go’zal oliyjanob inson edi! Badalbek ishini to’g’ri bajarishga uringan, o’z kasbining ustasi ekaniga qaramay yuvosh kishi edi! Men xuddi shunday derdim». Bu fikrdan so’ng Siroj muallimga nisbatan qandaydir mehr, Badalbekka nisbatan kishi qalbida qaxr yuzaga keladi. Lekin ular nimagadir «osmon negadir o’z-o’zidan darz ketib, qoq to’rt bo’lakka aj-

ralgan» bir kunda xalok bo’lishadi. Oradan ikki yil o’tgach, katta yo’l bo’yida joylashgan choyxonada Vali Siroj muallimni ko’rib qoladi. Kishi tafakkurida yuz bergan xolat tomon yo’naldi: Nima uchun osmon to’rtga bo’linganda ikkala hodisa yuz berdi? Nega SHirinbuloqda achchiq qismat ro’y berdi? Miyada tafakkur o’z vazifasiga kirishgan sari yozuvchi niyati aniqlasha boradi. Tafakkur yo’nalishi bir to’xtamga kelgach, mazkur narsalar ramziy ma’noga egaligi va uning zaminidagi haqiqat ayon bo’ladi.

Roman qahramoni Vali faoliyatini kuzatar ekanmiz bir narsani anglab yetamiz. Yani bugungi kunda o’z nomi bilan agallagan totalitar tuzumning olib borgan ish yo’sini, siyosati va uning oqibatida yuzaga kelgan, shakllangan shaxslarning asl qiyofasi yuzaga kelganligini anglaymiz. Asarning murakkabligi shundaki, bu narsa ochiq aytilmaydi. Bosh qahramon Vali ko’zga ko’ringan

g`ayritabiiy voqealik haqiqat bilan yo`g`rilgani, umuman, uning ramziyligi qo`lda sezilmaydi. Qaytaga real haytda o`z hatti-harakatlari bilan kishi qalbiga o`tirmaydigan shaxslar qilmishlarining tub asoslari oydinlashadi.

Vali Siroj muallim uyiga uni haqiqatdan ham o`lganini bilish uchun borganda, «oila a`zolari allanechuk baxtiyorligidan taajjubga tushadi. Buning ustiga muallimning qizi Mamlakatxon bezbetlarcha ko`z suzadi. Keyinchalik eriga xiyonat ham qiladi. Undan xomilador ham bo`ladi. Har payshanba esa butun oila a`zolari allaqayerga ovga ketishadi. Yerto`lada Siroj muallimning aynan o`zi qandaydir maxluq yashaydi». Siroj muallim faoliyati bilan yaqindan tanishgan sari masala moxiyati aniqlasha boradi

Bir kuni Mamlakatxonning eri Axmadjon Valini uchratib «Men xammasini bilaman bolaniyam boshqasiniyam! - deydi.» Bunday xamiyatsizlikdan hayron bo`lasiz. mushoxada qilasiz oqibatda ongingiz yo`nalishi bir nuqtaga kelib to`xtaydi va tilingizga bunday xamiyatsizliklikning sababi inson qalbidagi iymon va etiqodni susayib ketganidan degan fikr keladi Nega bunday bo`ldi degan savol yana sizni tinch qo`ymaydi. Uning ildizini topishga intilasiz. Bu intilish Valisiz amalga oshmaydi jumboqning kaliti uning hagti-harakati orqali ochilishini xis etgach u bilan bogliq voqealarni ong elagida taxlildan o`tkazasiz.Vali Badalbekning qiziga bog`lanib qoladi. Dastlab, Xanifa Badal bekning qizi bo`lgani uchun undan o`zini tortib yuradi. Lekin ko`ngil xam uza olmaydi. Sababi Xanifaning vujudida qandaydir nur bor edi. Bu nur vujudiga xam kirib. O`zida yangi insoniy odatlarni yuzaga keltiradi.

U ko`p yillardan beri ota-onasi qabrini ziyorat qilmasdi . Endi borib ruxlariga tiloat tushiradigan bo`ldi CHunki bu Xanifa uchun odatdagi xol edi Xanifadagi bosiqlik va bardoshlilik uni lol qoldirdi. U bilan taqdirini bog`ladi.

Xanifa otasi xususida quyidagi fikrni bildirdi «... Lekin qarg`ish tekkanidan omad yuz o`girdi Dadam taqdir aylanib, SHirinko`lda oddiy aeroplada uchayotganidan qilayotgan ishidan norozilanib bazan ezilardi

- Bilasizmi. dadam erkin mag`rur kishi edi. Xayotda birovga bo`yin egmadi. Har kimning gapiga kiravermasdi Lekin uning uchun buyruq muxim u askar edi'

SHunday tarbiya olgandi Unga buyurilsa, bas o`tgga suvga tashlanardi! Kulga aylanardi Men dadamni oqlamayman SHu bilan birga ayb faqat mening dadamda emas. Tushuning!»

Tushuning¹» so`zidagi xitob faqat Valiga qaratilgan emas. Keng ommaga, ya`ni, kitobxonlarga qaratilgan Demak. Badalbek bizdan yaxshi odam bo`lgan Lekin o`z erki o`zidan ketgach. buyurilgan narsani to`g`ri deb bajarib. insoniyat va tabiat olamiga ko`p zarar yetkazgan Insoniylik yuzasidan va vijdoniga zid yo`l tutgan Bu narsa o`z mevasini bergan Lekin Badalbek yaxshi tutgan sari o`z xattixarakatinang salbiy oqibatlarini anglay boshladi Hayotda o`zi va unga o`xshaganlarning tutgan ishi tufayli sodir bo`layotgan voqeadan vijdoni uyg`ona boshlaydi Biroq noilojlikdan qiynaladi Xanifa ana shu o`ylayotgan vijdonning maxsulidir Badalbekdagi vijdon uyg`onishining sababi bor CHunki, u bajarayotgan vazifasini o`z ixtiyori bilan emas balki majburiyat orqali amalga oshiradi

Siroj muallim unday emas. U ikki - zoxiriy va botiniy qiyofaga ega zoxiriy ko`rinishda o`zini madaniyatli ziyoli. xokisor. allanelarni qadrlaydigan kimsadek tutadi. botiniy. yani. asl qiyofada esa o`ta qabix insondir

Hayot haqiqatidan ma`lumki, kishini o`zidan yaxshi biladigan odam yo`qdir Shundan Siroj muallim ko`zguga o`zini soladi U ko`zguda xam o`z ixtiyoriy ko`rinish ifodasini istadi. lekin ko`zguni aldab bo`lmaydi U maxal toshdek rang kishining asl borligini ko`rsatadi Siroj muallim ko`zguda har safar o`zining asl qiyofasini ko`rganidan, alamidan uni sindiradi

Siroj muallimning faoliyati oilasida ham o`z ifodasini topgan. Birinchi xotini Maxluqodan qandaydir maxluq tug`ilgani qilmish-qidirmish, keyingi silsiladagilar esa sirtdan yiltiroq, aslida, axloqsiz va xamiyatsizdir. Ularning oilasi bilan xech kim qo`shnichilik ham aloqa ham qilmaydi. Yozuvchi uchun bu oila bir timsol. Uning zamirida va Siroj muallim obrazida muhim haqiqatni ochadi Romanda qahramon xayoloti maxsuli bo`lgan voqeaelik bilan real xayotiy tasvir omallalashib ketgan Bu esa voqealikni yanada kuchaytiradi.

Omon Muxtorning «Tepaikdagi xaroba» romani xam kompozitsiyasi.

qahramonning xatti-harakati syujetiga asos bo'lgan voqealari jixatidan o'zi kunikma xosil xilgan asarlarga uxshamaydi Negaki. u bilgan, o'qigan romanlarda bir qator qahramonlari bo'lardi. ular o'zaro konfliktga kirishardi dialogda biri-biriga davr va uning siyosati xususida dono gaplar aytishib ustunlikka erishishga intilardi Mazkur romanda esa unday emas. Asosan bir qahramon faoliyat ko'rsatadi u xam bir o'rinda ya'ni roman boshida rahbari Mardonqul aka bilan dialogda bo'ladi aslida gap nimada? Gap yuqorida aytganimizdek asarning yangi usulda. modern adabiyoti yo'lida yozilganida Ma'lumki modern adabiyotida yuqorida ko'rib o'tganimizdek, voqea-xodisalar insonlarning xatti- xarakatlari. ular yashash makon muhit real xolda badiiy tuqimaga aylantirilmaydi balki ular inson tasavvurida inkor etiladi. Kitobxon to'g'ridan- to'g'ri qahramon bilan muloqatda bo'lmaydi uning tafakkuri bilan to'qnashadi boshqacha aytsak aqlsizlikning faoliyati orqali ko'z bilan ko'rib qo'l bilan ushlab bo'lmas dunyo-insonning botiniy olami bilan baqamti bo'ladi. Ma'lumki, inson tafakkurining imkoniyatlari cheksiz. Demak roman voqealari xududining chegarasi yo'q. Bosh qahramon Mirzo Golib tafakkuri bir dars bo'lsa, u ummonga qarab oqadi Ummon esa olam kabi kengdir .Lekin bu joylari abstrakt emas romanda o'z aksini topgan voqealikka daxl qilingan sari u reallashib boradi. Chunki u ko'ngil mulki bo'lib qolmay til-ichki orqali makondagi narsa yuzaga chiqadi maqsad aniqlashadi. Faqat buni anglash uchun kitobxon ong faoliyatining barcha muktalari junbisha kelishi, faollashishi lozim. Tamoyillarini idrok qilish borasida botiniy olamni anglash iqtidoriga ega bo'lmogi darkor ma'lumki har kim ham bunday iqtidoriga ega emas. Roman insondan shunday olamga oid insoniyat dunyosiga ongli munosabatda bo'lishni talab qiladi. SHunday yondashilganda romanda ilgari surilgan yozuv kontseltsiyasi anglanadi. Demak, asar kitobxondan tafakkur faoliyatini ong yo'nalishini talab qiladi. Bu insoniyat uchun zaruriyatdir.

Romanda tafakkur yo'nalishi ruhiy olam insonga ya'ni ruhiy poklik ruhiy mardonavarlikning tashqi olamga o'tkazgan tasir kuchining mohiyatini ochishga qaratilgan. Bu kuchning poklashdagi roli ruhiy poklarning say- xarakati, qismati, fojiasi xususidagi haqiqat ruhi botir shaxslar botiniy olami tasvirida ochib beriladi.

Bunday bo'lishi bejiz emas. Chunki, qadimgi diniy-falsafiy asarlarda hayotdagi eng katta jasorat ruxiy botirlikdir», deyiladi Adib ana shunday ruxiy botirlar ong yo'nalishi kashfiyotida odam va olamning poklanish zaminini ko'rsatadi Albatta. yangicha yo'nalishda

Insonda nafsga nisbatan moyillik kuchaysa unda hayvonlik xususiyatlari ortadi. Rux ilohiy ne'mat bo'lib, barcha yaxshilik u tufayli yuzaga keladi. Romanning tub asosid ham shu yotadi

Romanning bosh qaxramoni Mirza G'olib bugungi kunda Katta Yo'lda yo'l izlaydi .Lekin tuqayzor ichidan bu yo'lga chiqa olmaydi

Mirza G'olib topolmadi, demak, o'tmish va bugungi kun faoliyatimiz bilan bog'liq hayotning yechib bo'lmas chigalliklari orasida gangib yurib, kishini sergaklantiradigan ma'noga Tepalikdagi xarobaga duch keladi. U xarchand qiblaga talpingan sari xarobaga duch kelaveradi. Bu xolning zamirida ikki ramziy mano bor.

Qiblaga yetisha olmaydi ,chunki u hali unga munosib emas. U ruhiy kamolatga erishmagan.

Ikkinchi ramziy ma'nosi har qanday insonning borar joyi abadiy makoni bir hilda ko'rilgan. SHundan xayotda o'zini o'zgalardan ustun quyishi, adolatsizlik qilishi nojoiz.Uning hisob-kitobi bor. Bu haqiqat Mirza Golibning imkoniyati nochorligini bilib turib, adolatsizlik qilgan Mardonqul aka do'stlarining ahvolidan xabardor bo'lgan Tenglash va Hakimjon kabilar faoliyati risolida ochib beriladi. Bundaylardan keyin o'z o'chini oladi. Bu xususida romanda shunday yoziladi:«yer ostida u tepalikdagi xarobada uch jasad chirib yotar,firibgar bilan tib xodimlari ularni ko'zdan kechirmoqda edi .Mirza G'olib diqqat qildi.

Bular u so'nggi ko'rgan jasadlar, shu bilan birga negadir, tanish qaysidir belgilariga e'tibor berilsa, yana kimlarnidir tufayli Lutfiy, Mashrab, Bayronni eslatmoqda edi! Bularni begona deyish demaslik ham mumkin edi!

Mirza G'olib mirshablar peshonasiga tikildi, angrayib qoldi orqa eshigi ochiq mashinada qo'llariga band solingan uch kishi kulishib o'tirar, bulardan biri kattaroq Nasr akagami, Mardonqul akagami o'xshar edi . Qolgan ikkisi Tenglash

bilan Hakimjon.

Bu ramziy tasvirda ikki haqiqat o'z ifodasini topgan. Birinchisi, Lutfiy Mashrab Bayron jasadini tilga olinishi, ularni foniy dunyoda o'z maqsadlariga erisha olmay, nadomat bilan o'tishlariga Mardonqul aka kabi nafsga xirs qo'ygan kimsalar sababchidir. Ikkinchisi, ularni mirshablar tomonidan band qilinishi jazosini topishiga ishoradir.

Roman so'ngida avtobusda kelayotgan Mirza G'olibga xotini Mastura bilan birga ishlaydigan juvon shunday deydi: «Mastura opamni ko'zi yoridi o'g'il! Lekin juda qiynaldilar Bir o'lib tirildilar hozir yaxshilar ertami-indin javob

bersa kerak sizni tabriklayman qo'shnilaringiz menga yaqin fabrikadan ham qizlar borib turibmiz. Umuman hammasi joyida . Nima uchun indamaysiz? Mastu- raning ishi o'ngidan keldi. Chunki u sof va pok shaxs. Uchinchini bitirgandan beri fabrikada halol, qanoat bilan hech bir tamasiz mehnat qiladi. Odamlarga mehri xam samimiy va tabiiy Shunday unga qo'shnilar fabrikalardagi mehr ko'rsatadi Zibli Mirza G'olibning do'stlari Tenglash Hakimjonlar esa oqibat ko'rsatmaydilar. CHunki ular hamma narsani anglab turib, nafsga beriladilar. Bular qatorida sofrog'i Mirza G'olib ham o'z adashi urdu shoiri Mirza foniy darajasida emas, shoir nihoyatda vijdonli, o'z kadrini biladigan shaxs bo'lgan. Asar qahramoni Mirza G'olibning ruhi shoir darajasida botir emas shundan xayotda mehnatiga yarasha qadr topmaydi.

Modern adabiyoti bu badiiy asar bilan ilmiy asarning omuxtaxi degani emas “Tepalikdagi xaroba” romanida shu narsa yaqqol ko'zga tashlanadiki, u kitobxonning asarga bo'lgan ishtirokini susaytiradi. Adib undan forig' bo'lmog'i darkordir.

To'xtamurod Rustamning «Kapalaklar uyini» romani yangi tamoyildagi asar sifatida tilga to'xtaladi bu haqida turli fikrlar bildirildi xatto absurd adabiyotining yaxshi namunasi deb talqin qilishdi. Rozdan gyuetikasidan ilmiy ish yozgan adabiyotshunos olimi Zulfiya Pardayeva bu borada shunday fikrni aytadi: «T. Rustamning «Kaplaklar uyi» romanini talqin qilar ekanmiz , absurd romanning talqin manbai absurd hayot ekanligini anglaymiz. Hayot haqidagi falsa-

fiy mushoxadalarini ko`povozlilik psixologik tahlil ohiriga yetazdi. Romanning g`oyaviy-badiiy mazmuni qahramon mansub xayot inikosi sifatida namoyon bo`lganini Badal Armon esa absurd qahramon sifatida shakllanganini absurd har qanday davrda har qanday holatda mantiqsizlik ekanligini ochib berishga xizmat qiladi (Zulfiya Pardaeva O`zbek romanlari poetikasi T., 2003, 40-bet).

Lekin romanni o`qigan odam hech ham bunday emasligini anglaydi. Birinchi- dan absurdlik asar voqeiligida emas. Yovuzlikning kontseltsiyasida ko`rinadi CHunki yozuvchi hayotdagi insonlar tabiatidagi illatlar ulardagi nomukammalikni Nasim Ibod SHoshiy SHosh G`oyib ulkan obrazlarida aks ettirishga intiladi Biroq, ularning xatti-harakati faoliyati tasvirida emas shunchaki sistemaga solinmagan bayonda shundan birorta obraz kishi yodida qolmaydi. Asarning annotatsiyasida «Teran ruhiy tahlil yuksak majoziylikka asoslangan asar» deyiladi.Lekin amalda bu narsa ko`rinmaydi. Yuqorida sanab o`tilgan qahramonlarning boshidan o`tgani, ularning tabiati qaytariqlar bilan hikoya qilinadi. To`g`ri, bular misolida ham kishilarning ongiga ruhiga ta`sir qilsa bo`ladi Buning uchun qaxramonlarning faoliyati bilan bog`lik bo`lgan voqealik zamiriga katta falsafiy haqiqatni ijtimoiy muammoni singdirish lozim Afsuski, yozuvchi bunga erisha olmagan. Modern yo`nalishdagi asar abstrakt rasmlarga o`xshab qanday tushunsang shunday angla deb duch kelgan voqeani hikoya qilish emas. Balki, ular ma`lum bir konieltsiyaga ega bo`lib,ma`lum maqsad sari yo`naltiriladi. Bu narsa qahramon orqali amalga oshiriladi. Modern yo`nalishdagi asar qahramonlari esa o`z o`y-hayollari ong oqimi misol miyada yo`nalgan fikrlarda o`zi yashayotgan xayotni teran badiiy talqin va tahlil qilib, olam muammosini anglashimizga yordam beradi. SHuningdek o`zi yashayotgan jamiyat illatlarini mikroskopda ko`rganday ko`ra oladi, hamda uni shafqatsiz fosh qiladi,uning ildizlarini topishga intiladi yoki bu jamiyatda maqsad va niyatlarini amalga oshirishning iloji yo`qligini anglagach, tushkunlikka tushadi. SHu tariqa, o`zi yashab turgan jamiyatdan begonalashish tuyg`usi yuzaga keladi. Bularning barchesi teran ruhiy tahlilda iztirob va fojialikning asosli inikosida ochib berilmog`i darkor. Bizga modern yo`nalishdagi asar deb taqdim etilayotgan roman

qahramonlarining birortasi na fikrlaydi na atrofdagi yuz berayotgan voqealarga munosabat bildiradi na muloxaza yuritadi, na ruxiy iztirobni boshdan kechiradi. Uning o`rniga barcha do`stlar orasida xursandchilik ular o`rtasida bo`ladigan voqealar hikoya qilinadi hatto yigitlar o`zaro sir tutadigan ishlar haqida ham tortimaydilar. To`g`ri bu voqealar ichida jamiyat va insoniy illatlar fosh qilingan holatlar uchrab qoladi, lekin esda qolarli aniq holatda tasvvurda emas, tumtaraqay bayonda berilgani uchun kamdan-kam kishi uni anglab oladi.

Annotatsiyada aytilgan majoziylik ikki o`rinda ko`rinadi. Bu roman voqealari kechgan Bakahovuz redaksinida va asar nomi yani. «Tepaliklar uyning Bakahovuz ramzida katta dunyodan ajratilgan, faqat muxit emas fikrlash tarzi har cheklangan kechagi totalitar tuzumni anglash mumkin bunday to`zimda yetmish tipdan ortsa davrda bitta g`oya, yani sotsializm g`oyasi uni butun dunyoda afzal tuzum ekanligini targ`ib qilindi. Butun ma`naviy olam matbuot san`at teatr, adabiyot unga xizmat qiladi. Aytilgan fikrlar yaxshi edi. Lekin amalda esa uning aksi bo`ldi. Kishilar aytilgan fikrlarga monand harakat qilib teshirib qilinardi. Dunyoda eng adolatli barcha baxtli yashaydi degan tuzumda esa insonga insonlarcha hayot kechirishmasdi. Aytilganga matbuot orqali yetkazilgan e`lon qilinganga amal qilishlik g`irt bemehrlik absurdda yozuvchi asarida shularni his ettirmoqchi bo`lgani aniq. Lekin ko`rib o`tganimizdek bunga erisha olmagan.

Romanning nomi asar qahramonlari hatti-harakatiga mos tushadi Ma`lumki, kapalaklar juda qisqa umr ko`radi. Shundan bizningcha hayotini o`yin-kulgida gul va chamanzorlar qo`ynida o`tkazadi go`yo hayot jannatday roman qahramonlari ham fikrlamaydi mulohaza yuritmaydi. Faqat harakat qilishmadi jim yashaydi. Umuman hayotga nisbatan loqayd balki yozuvchi totalitar tuzumda jamiyatga nisbatan fikr bildirganlar tahchib xilingzni uchun odamlar fikrlar yuritadi. Shundan ular loqayd demoqchidir. Bu fikr to`g`ri va ijtimoiy xarakterga egadir. Afsuski, bu to`g`ri fikr romanda yorqin ifodalangan.

Zo`rlik asosida qurilgan har qanday jamiyatning umri qisqadir. Uning umrini qo`rquv va aldovlar asosida cho`chib bo`lmaydi. Romanga shu goya singdirilganda u kapalaksimon harakatda bo`lgan qahramonlarning xatti-harakati

tutgan ishining badiiy tahlilda ochib berilganda asar o`qishli va tasirli bo`lardi. Roman qahramonlari salmoqli fikr mantiq kuchiga faoliyatga ega emasliklari yozuvchining modern yo`nalishdagi asar mohiyatini to`la o`zlashtirganidandir. Asarning hozirgi ko`rinishiga bir urinish deb qarash lozim. Omon Muxtorning “Ko`zgu oldidagi odam” asarida ko`zgu detalining badiiy-estetik funksiyasi quyidagilarni o`z ichiga oladi. Omon Muxtorning “Ko`zgu oldidagi odam” romanida detal muhim ahamiyatga ega. Bu asardagi asosiy detal ko`zgu motividir. Ko`zgu detali orqali Siroj muallim xarakteri namoyon bo`ladi. Asardagi ko`zgu detali orqali asarning g`oyasi ochiladi. Shu ko`zgu detali insonning o`zida ikki xil, ba`zan uch xil inson yashashini ko`rsatadi. Ko`zgu haqiqiy inson kim ekanligini o`ziga namoyon qiladi. Romandagi ko`zgu detalining asosiy vazifasi inson xarakteri, ruhiyati, kayfiyati, uning asl qiyofasini ochib berishdan iborat.

Xalq orasidagi oynani sindirish marhum ruhini jonsizlantirishi mumkinligi haqidagi aqidalardan kelib chiqib O. Muhtor va O. Uayld asarlarida singan ko`zgudan qahramonlar hayotining intihosini anglatuvchi ramz sifatida foydalanilgan.

Xulosa.

XX asrda tug`ilib shakllanish yo`liga kirgan bo`lsa-da, sarguzashtning tarixi olis-olislarga borib taqaladi. Xalq og`zaki ijodi – ertaklar, dostonlar, ular zahirida yaratilgan jangnomalar, rivoyat, hikoyat va dostonlar, jumladan, Navoiyning “Sab`ai sayyor”, “Lison ut-tayr” asarlari sarguzasht turining eng nodir namunalaridandir. Shundan bo`lsa kerak, bizdagi dedektiv namunalariga ko`ra sarguzasht asarlarda milliy o`ziga xoslik yorqinroq. Modern yo`nalishida yozilgan asarlarning zahirida ham sarguzasht bor. Ularning dedektiv yoki sarguzasht asarlardan farqi, insonning ongida ro`y beradi, ularni tushunish ancha murakkab.

Milliy adabiyotlardagi o`sis-o`zgarishlar ham avvalo adabiy qahramonlar obrazida bilinadi. Albatta, adabiyotdagi yangilanishlar jarayoni jamiyatdagi

ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga nisbatan juda sekin kechadi. Har qanday mamlakatda sifatida o'n-yigirma yil orasida, albatta, siyosiy islohotlar, turli ko'lamlagi o'zgarishlar yuz beradi. Ammo adabiyotda inson obrazini adabiy qahramon sifatida ko'rsatishda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga mutanosib tezlikda o'zgarish ro'y bermaydi. San'at va adabiyotda faqat mavzulargina ijtimoiy-siyosiy vaziyatga mos holda yangilanib turadi. Ammo adabiy qahramonlar obrazi mazmun-mohiyatidagi jiddiy farq uzoq muddat ichida yuzaga keladi. Navoiy dostonlaridagi qahramonlar bilan A. Qodiriy romanlari, Hamza dramalaridagi qahramonlar bir-biridan hayot haqidagi o'y-mushohadalari, orzu-o'ylari, maqsad, intilishlari jihatidan jiddiy farq qiladi. Ular oralig'ida salkam besh asr turadi. Farhod, Shirin, Bahrom, Dilorom, Layli, Majnunning xatti-harakatlari, kechmish-kechirmishlarida ertak dostonlar qahramonlariga xos muayyan sifatlar ko'rinadi. Otabek, Kumush, Zaynab («O'tkan kunlar»), Mahmudxon, Maryamxon («Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari») esa o'zlarining xatti-harakati, hayot tarzi, kechinmalari bilan xuddi real hayotdagi oddiy odamlar kabi taassurot tug'diradi. Navoiy qahramonlari favqulodda ishlarni bajaradi. Masalan, Farhod amalga oshirgan ishlarni, aynan dostonda bayon qilingan tarzda, hech bir zamonda inson zoti bajarolmaydi. A. Qodiriy, Hamza qahramonlari bo'lsa, kundalik maishiy turmush muammolari girdobida qolib, iztirob chekadi.

“Iliada”, “Odisseya”, “Shohnoma”, “Alpomish”, “Manas” yoki “Ramayana”, “Mahobhorat” kabi asarlar uzluksiz jangu jadallar kechgan, bosqinchilik avj olgan zamonlarda yaratilgani bois ularning qahramonlari jasur, qo'rqmas, yengilmas kishilar ekanligi ta'kidlanadi. Chunki jang, urushlar avj olgan davrlarda jismoniy kuch, jasurlik juda qadrlangan. Odamlar yangi yerlarni kashf etib, boylik orttirib, dovuq qozonish ishtiyoqida bo'lgan zamonlarda esa “Robinzon Kruzo”ga o'xshash asarlar yuzaga kelgan. Ingliz adibi Daniel Defo (1660—1791) ning ushbu romani qahramoni o'sha zamonning sayohat, sarguzashtlarga ishqiboz odamlarining o'ziga xos obrazi sanaladi.

Har bir davrning o'z muammolari bo'ladi. Badiiy asarlarda ana shu muammolar adabiy qahramonlar hayoti orqali aks ettiriladi. Uzluksiz urushlar ro'y

bergan paytlarda bahodir, pahlavonlarning vatanparvarligi, jasoratini madh etuvchi “Iliada”, “Odisseya” kabi asarlar yaratilgani ham shundan dalolat beradi. Yunonlar bilan troyaliklar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urush to‘g‘risidagi rivoyatlar asos qilib olingan “Iliada” dostonida Axillning kuch-qudrati, dushmanga qahru g‘azabi, do‘stiga sadoqati, mardligi madh etiladi. “Odisseya”da esa Troya jangidan qaytayotgan jasur, mard Odisseyning sarguzashtlari naql qilinadi. Bu dostonlarning qahramonlari dehqon yoki cho‘pon emas. Axill Fessaliya podshohi Peley va dengiz ma‘budasi Fetidaning o‘g‘li bo‘lsa, Odissey — Itaka podshohi. Axillga hech bir pahlavon tenglasha olmaydi. U o‘zining kuch-qudrati bilan troyaliklar lashkarini shu darajada qo‘rqitib qo‘yganki, hech kim shahar darvozasini ochib, tashqariga chiqmaydi. Odissey ham shu darajada kuchli, qudratli, jasurki, u dengiz ma‘budi Poseydondan ustun keladi. «Alpomish» dostoni qahramoni Alpomish ham, «Manas» qahramoni Manas ham, «Ramayana», «Mahobhorat», qahramonlari ham hukmdorlarning farzanllari. Ularni ma‘budlar, chiltonlar tarbiya qiladi, mushkul vaziyatga tushishganida yordamga kelishadi.

O‘zbek adabiyotida adabiy qahramon obrazini yaratishda jiddiy burilish rus, fransuz, nemis kabi xalqlar adabiyotiga qiyoslaganda bir oz keyin — XX asrda yuzaga keldi. Bu Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qahhor, Oybek kabi ijodkorlar asarlarida namoyon bo‘ldi. Ularning roman, qissa, hikoyalarida o‘zbek kishilari obrazi G‘arb va Sharq realistik adabiyoti an‘analari asosida xuddi hayotning o‘zidagiga o‘xshash tarzda gavdalandirildi. Navoiy dostonlari qahramonlari ko‘proq romantik, xayoliy odamlar sifatida taassurot uyg‘otgan bo‘lsa, bu adiblar asarlaridagi adabiy qahramonlar xuddi hayotdagi odamlar kabi tasavvur tug‘dirdi. Ana shu odamlarning haqqoniy, ta’sirchan qiyofasini gavdalandirish, ularning sir, sehriga to‘la qalb dunyosini ochib ko‘rsatishga intilish barcha xalqlar adabiyotida bo‘lgani singari o‘zbek adabiyotida ham asta-sekinlik bilan takomillashib bordi.

San’atning hech bir turi inson dunyosini to‘la-to‘kis gavdalandirmaydi. Har bir san’at turida bu sirli xilqatning ma’lum bir qirrasigina aks ettiriladi. Adabiy janrlar ham bu olamning muayyan jihatini ko‘rsatadi. G‘azal, ruboiy, tuyuq,

sonetda insonning lahzalar ichidagi kechinma, hissiyotlari ifodalansa, roman, dostonda inson dunyosi, uni qurshab turgan muhit nisbatan kengroq gavdalantriladi. Shu boisdan milliy adabiyotlarning inson dunyosini ko'rsatishdagi taraqqiyoti darajasi asosan dostonlar hamda romanlarga qarab belgilanadi. Roman endilikda adabiyotning yetakchi janri sanaladi. Inson dunyosini adabiy qahramonlar timsolida aks etgirishda roman janrining yangi imkoniyatlari namoyon bo'lmoqda. Bu sirli olamni badiiy tahlil qilishda Dostoyevskiy romanlarining samarali ta'siri natijasida jahon adabiyotida, xususan, Joys, Kafka, Kamyu, Borxes, Markes, Koelo, Aytmatov kabi adiblar asarlarida ta'sirchan adabiy qahramonlar obrazlari dunyoga keldi.

- XX asrda shakllangan dedektiv adabiyoti uzoq tarixga ega bo'lgan buyuk Sharq va milliy uyg'onish davri adabiyotining uzviy davomidir. Uning yangilanishi va taraqqiy etishining xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.
- Jahon adabiyotining ko'lami keng, yo'nalishi rang-barang bo'lib, badiiy adabiyotning nazariy muammolarini tadqiq qilish va badiiy ijod misolida echimini topishga urinishi adabiyotshunoslik fanining rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.
- Jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotidagi dedektiv janrdagi bosh qahramonlarning o'xshash tomonlari tahlil etildi.
- Dorian hayotida portret detali muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u hayotida qanday o'zgarish bo'lsa portretni sababchi deb biladi. Portretni va u bilan bog'liq barcha xotiralarni yo'q qilish istagi paydo bo'ldi, o'tmishini o'ldirsa ozodlikka chiqishini o'ylaydi.
- Portretidagi qalbining g'ayri tabbiy hayotiga hotima qo'yishi va bu muhim bashoratlar-u ogoh qilishlar to'htagandan so'ng u yana yangidan xotirjam hayot boshlayman deb o'yladi va jon holatda pichoqni suratga sanchadi. Portret detali oddiy detal emas, balki u muhim vazifani bajaradi. Asarning g'oyasi shu detal asosida yoritiladi.

- Aslida Dorian o'z ruhiga pichoq sanchgan edi va u o'zini halok etdi. U o'lgandan so'ng portretidagi barcha o'zgarishlar yo'qolib o'z holiga keldi, uning ruhiyatidagi barcha yovuzliklar suratda aks etgan jirkanchli holatlar Dorianga o'tgan edi. Aslida Dorian o'zini-o'zi qurbon qildi.
- Omon Muxtorning "Ko'zgu oldidgi odam" romanida detal muhim ahamiyatga ega. Bu asardagi asosiy detal ko'zgu motividir.
- Ko'zgu detali orqali Siroj muallim xarakteri namoyon bo'ladi.
- Asardagi ko'zgu detali orqali asarning g'oyasi ochiladi. Shu ko'zgu detali insonning o'zida ikki xil, ba'zan uch xil inson yashashini ko'rsatadi.
- Ko'zgu haqiqiy inson kim ekanligini o'ziga namoyon qiladi.
- Romandagi ko'zgu detalining asosiy vazifasi inson xarakteri, ruhiyati, kayfiyati, uning asl qiyofasini ochib berishdan iborat.
- O. Muhtor va O. Uayld shayton, iblis obrazlaridan asarlarning g'oyaviy- estetik maqsadini ochishga unumli foydalangan bo'lib , Siroj muallim hamda Lord Genri timsollarida bosh qaxramonlar Vali va Dorian Grey ni yo'ldan ozdiruvchi, ularni gunoh ishlarga chorlovchi inson qiyofasidagi shayton o'brazlari tasvirlangan.
- Xalq orasidagi oynani sindirish marhum ruhini jonsizlantirishi mumkinligi haqidagi aqidalardan kelib chiqib O. Muhtor va O. Uayld asarlarida singan ko'zgudan qahramonlar hayotining intihosini anglatuvchi ramz sifatida foydalanilgan.
- Badiiy adabiyotdagi har qanday obraz o'zida umumiylikni aks ettirgani bois ramziy sanaladi. Badiiy ijodda qo'llanilgan ramziy obrazlarni o'rganish, uning asar poetikasidagi o'rnini belgilash, ijodkor g'oyaviy-estetik niyatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi

Folklorda ko`zgu detalidan foydalanishda ushbu buyumning insonlar maishiy hayotidagi o`rni, uning borliqni aks ettirish xususiyati bilan bog`liq qarashlar muhim o`rin tutgan. Folklor namunalarida oyna asosan ertak qahramonlarini dunyo voqealaridan xabardor etish, uzoqdagi narsa-buyumni ko`chirib kelish, yolg`onchining sirini fosh etish kabi vazifalarni bajargan. Ushbu epik motivdan mumtoz adabiyotda ham ijodiy foydalanilgan.

Badiiy adabiyotda surat yoki portret detalidan foydalanish o`z tarix va ananalariga ega bo`lib, unga oyna singari inson tashqi ko`rinishini aks ettirish vositasi bo`libgina qolmay, balki suratda tasvirlangan shaxsning ichki dunyosini, o`tmishi va kelajagini ko`rsatib berish vositasi, umid, ishonch, quvvat bag`ishlovchi kuch, eski xotiralarni eslatuvchi, lirik qahramon tili bilan aytganda “balo”, sevgilisi siymosini yodga soluvchi yodgorlik, insonning umri, ichki kechinmalarini ko`rsatuvchi qalb ramzi insonning botiniy qiyofasini, ichki dunyosini ko`rsatuvchi ko`zgu, chirish ramzi, gunohning ayon oqibati va hamisha inson o`z ruhini o`zi nobud qilishi mumkinligini isbotlovchi dalil, insonning ruhi kabi funksiyalarni bajargan.

“Dorian Greyning portreti”, “Ko`zgu oldidagi odam” asarlaridagi portret, ko`zgu detallari orqali yozuvchilar, qahramonlar ichki olami, ma`naviy qiyofasini ochib berishda asosiy vazifalar sifatida namoyon bo`ladi. Ushbu asarlardagi ko`zgu va portret ramzlaridan foydalanishda mushtarak va o`ziga xos jihatlarning mavjudligi asarlar yaratilgan davr muhit va milliy mentalitetdagi farq bilan izohlanadi.

***Foydalangan adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., “Ўзбекистон”, 2008.
2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Т., “Ўзбекистон”, 2009.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т., “Ўзбекистон”, 2011.
4. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1,2-томлар. Т., “Фан”, 1978-1979.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. T., G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991 y.
6. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
7. Alisher Navoiy. Sab`ayi sayyor. T. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot matbuot birlashmasi. 1991.
8. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., “Искусство”, 1986.
9. Белинский В.Г. Адабий орзулар. Т., АСН, 1977.
10. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., “Ўзбекистон”, 2002.
11. Каримов Н., Мамажонов С. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. Т., “Ўқитувчи”, 1999.
12. Mirtemir. Asarlar. II Tom. T.: ”G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at”, 1971

13. Мухтор.О. Тўрт томон қибла. Трилогия.Т.,2000. Б.:420
14. Назаров У.Ўзгалар учун.Тошкент,1988
15. Назаров Б., Расулов А. ва б. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. Т., “Тафаккур қаноти”, 2012.
16. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. Т., “Мумтоз сўз”, 2008.
17. Норматов У. Нафосат гурунглари. Т., “Мухаррир”, 2010.
18. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Т., “Шарқ” НМАК, 2007.
19. Расулов А. Бетакрор ўзлик. Т., “Мумтоз сўз”, 2009.
20. Расулова З., Ўзбек халқ сеҳрли эртакларида ғаройиб буюмлар, фил. ф.н.дисс.авт., Т.,2012.
21. Саримсоқов Б.И. Бадиийлик асослари ва мезонлари. Т., 2004.
22. Солижонов Й. Сўз сеҳргари.А.Қаҳҳор 100 йиллигига.Т., “Ниҳол”, 2007.
23. Солижонов Й. Мен сиздан сабоқ олдим. Адибларга мактублар. Т., А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхона нашриёти, 2007.
24. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. Т., А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
25. Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. Т., “Адиб” нашриёти, 2013.
26. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. Т., А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013.
27. Солиев А. “Сурат” достонининг ғоявий-бадиий хусусиятлари//Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент.2012.2-сон.
28. Тоирова Н., Ойна ва сурат тимсолларининг бадиий-эстетик вазифаларига доир//Ўзбек тили ва адабиёти.Тошкент.2015
29. Уайлд О. Дориан Грейнинг портрети. //Жаҳон адабиёти. Т.,1-2-3-сонлар
30. Улуғбек Ҳамдам. Узоқдаги Дилнура. Сара ҳикоялар тўплами. www.ziyouz.com.
31. Hamroyev Sh. Suratdagi ayol Toshkent 1994.

32. Хўжаев Т. “Садди Искандарий”даги рамзларнинг маъно кирраларига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент.2010.6-сон
33. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Т., “Шарқ” НМАК, 2004.
34. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. Т., “Маънавият”, 2004.
35. Шукурулло. Танланган асарлар. Тошкент.2010
36. Ўзбек адабий танқиди. Антология. Т., “Турон-икбол”, 2011.
37. Ўлжабоев У. Замон талаби ва ижодкор масъулияти. Т., “Ўзбекистон”, 2012.
38. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Дарслик. Т., “Фан”, 2007.
39. Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. Т., “Академнашр”, 2010.
40. Эшонқул Н.Маймун етаклаган одам. Сара ҳикоялар тўплами.
www.ziyouz.com.
41. Жорқинбоев О.Портрет. Сара ҳикоялар тўплами.
www.ziyouz.com.
42. Тоҳир Малик “Шайтанат” Т., “Шарқ”, 2005 йил.
43. Артур Конан Дойл. “Шерлок Холмс ва доктор Уотсон саргузаштлари”. Т., “Ўқитувчи” 1985 йил.
44. М. Пюзо “Чўқинтирган ота ёки мафия сардори”. Т., Шарқ, 2008.
45. <http://dklad.ru/manika/dklad/view/zip>
46. Dawloadln 122. Weeblyu.com/blog/ sohild.

